

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA FAKULTETI
“PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA” KAFEDRASI

“Integratsiyalashgan ta'lim asosida o'quvchilarda iqtisodiy bilimlarni rivojlantirish (3-sinf darslari misolida)” mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: “Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish” ta'lim yo'nalishi

bitiruvchi 4-kurs talabasi

Toshmurodova Sabohat Qayom qizi

ILMIY RAHBAR:

O'qituvchi Ne'matov B.

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi.

_____ sonli bayonnomasi “_____” _____ 2018 yil

Termiz – 2018

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. Integratsiyalashgan ta'lim asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida iqtisodiy bilimlarni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	11
1.1. Boshlang'ich sinf o'quv jarayonida ta'lim integratsiyasi mazmuni, mohiyati va uning turlari.....	11
1.2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida iqtisodiy bilimlarni rivojlantirish pedagogik muammo sifatida.....	28
1.3. Boshlang'ich ta'lim jarayonini integratsiyalashning amaliyotdagi holati.....	38
I bob yuzasidan xulosalar.....	43
II BOB. 3-sinf matematika darslarida integrativ yondashuv asosida o'quvchilarda iqtisodiy bilimlarni rivojlantirish samaradorligi.....	44
2.1. Boshlang'ich sinf darslarini integrativ yondashuv asosida tashkil etish metodikasi	44
2.2. Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan darslarni takomillashtirish xususiyatlari va tamoyillari.....	51
2.3. Tajriba sinov ishlari tahlili.....	65
II-bob yuzasidan xulosalar.....	70
Umumiy xulosa va tavsiyalar.....	71
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	73

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Ma'lumki, so`nggi yillarda ta'lim-tarbiya tizimida yangi avlod tarbiyasida jahon fani va madaniyatining ilg`or yutuqlarini jamlagan, o`tmish ajdodlarimiz aql-zakovoti mahsuli sifatida yaratilgan milliy va ma'naviy qadriyatlarimizga tayangan holda zamonaviy ta'lim-tarbiya berish uslublarini shakllantirish muammosi vujudga keldi. **Barkamol avlod jamiyat taraqqiyotining asosi. Shu bois mamlakatimizda ham jismonan, ham ma'nan barkamol avlodga ta'lim-tarbiya berish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.**

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov: "biz o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan erkin, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalashimiz kerak " , - deb ta'kidlagan edi.

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash Milliy datsuri", "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi Qonun hamda "Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi", "2008-2012 yillarda uzluksiz ta'lim tizimi mazmunini modernizatsiyalash va ta'lim-tarbiya samaradorligini yangi sifat darajasiga ko'tarish Davlat dasturi", 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida va boshqa me'yoriy hujjatlarda uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish vazifalari belgilangan bo'lib, bu esa ta'lim jarayonida o'quvchilar bilan ishlash, ularni barkamol avlod sifatida shakllantirish davlat miqyosida muvaffaqiyatli amalga oshirilishida zamin bo'lmoqda.

Zero, mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz" degan fikri muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur masalaning dolzarbligi o'quvchilarning ijodiy fikrlashlari, ularning bilim egallashdagi faolliklarida yaqqol namoyon bo'ladi.

Boshlang'ich sinflarda ta'lim jarayoni o'qitishda foydalanilayotgan usul, uslub va shakllarining turli- tumanligi bilan ajralib turadi.

Ta'lim amaliyoti ko'rsatishicha, maktab ta'limida fanlararo aloqadorlikni yo'lga qo'yish fan va jamiyat hayotida bugungi kunda sodir bo'layotgan integratsion jarayonlarning yorqin ifodasidir. Ushbu aloqadorlik o'quvchilarning bilimlarni ongli o'zlashtirishi, dunyo haqidagi yaxlit tasavvurlarini rivojlantirish va amaliy va ilmiy-metodik tayyorgarligini oshirishda muhim o'rinni egallaydi. Bunday tayyorgarlik umumiy o'rta ta'lim bitiruvchilarini darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda, ishlab chiqarishda va umuman har qanday faoliyatda o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini erkin qo'llash imkoniyatini beradi.

Ilm-fan yutuqlari va ularning insonlar hayotidagi o'rni rivojlangan mamlakatlar maktab ta'limi mazmuni va strukturasi ta'sir o'tkazmay qolmaydi. Mamlakatimizda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar natijasida o'quv soatlari keskin qisqartirildi, o'quv materiallari mazmuni modernizatsiya qilindi.

Turli o'quv predmetlarini o'qitishda soatlarning qisqarishi, o'quv materiallari mazmunining ilmiy jihatdan murakkablashishi natijasida o'quvchilarga qo'yilayotgan talablar kuchaydi, ta'lim sifatida birmuncha pasayishlar kuzatilmoqda. O'quvchilar o'quv materiallarini o'zlashtirishida sodir bo'layotgan bunday pasayishlar yosh avlodning intellektual rivojlanishiga ta'sir etmay qolmaydi. Bu holat esa o'qituvchilardan o'quvchilarga bir fan doirasida bog'liqliklar asosida turli hodisalarni o'rganishni taqozo etadi.

Tabiat hodisalarini, ularning tuzilishi, mohiyati va funksiyalarini, qonuniyatlarini o'rganish o'quvchilar tafakkurida qiyoslash, analiz va sintez, abstraktsiyalash, umumlashtirish, induktiv va deduktiv xulosa chiqarish kabi tafakkur operatsiyalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Kadrlar tayyorlash milliy modelida fanning tabiat va jamiyat to'g'risidagi yangi fundamental hamda amaliy tadqiqiga oid yo'nalishlarini rivojlantirish, yuqori malakali, ilmiy salohiyatga ega pedagogik kadrlar tayyorlash, ularni jahon fani integratsiyasi darajasida ilmiy jihatdan savodxonligini va mahoratini oshirish shu asosda umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim va tarbiya mazmunini yangilash, sifat va samaradorligini ko'tarish, har bir fan bo'yicha o'quvchilarning nazariy bilimi, amaliy ko'nikma va malakalarini takomillashtirish ta'kidlangan.

Erkin fikrlovchi, ijodkor, mamlakatimizning mustaqillik mafkurasiga sadoqatli bo'lgan barkamol shaxsni tarbiyalash boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda fanlararo aloqadorlik qonuniyatlarining yaratilishi, aloqadorlik tizimining tarkib topishi ta'limda istiqbolli vazifalar yechimini ta'minlaydi.

Fanlararo aloqadorlik nazariyasining taraqqiyotida tabaqalashtirilgan holat hukm sursa ham amaliyotda integratsiya, o'zaro aloqadorlik fanning ijtimoiy ahamiyatini yanada oshiradi. So'nggi yillarda amalga oshirilayotgan fanlararo aloqadorlik muammolarini hal etishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar ijtimoiy hayot talabidir. Hozirgi kunda, ayniqsa, darslarni integratsiyalashga doir izlanishlar davom etmoqda. Bu borada rivojlangan mamlakatlarda ham qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Bolgariyalik olimlar tabiiy – ilmiy bilimlarni o'z ichiga olgan, 10-12 yoshli bolalarga mo'ljallangan integratsiyalangan kurs yaratishdi. O'qish, yozish va og'zaki nutq «til san'ati»ga tarix, geografiya, fuqoroshunoslik, jamiyatshunoslik, fizika, kimyo, biologiya, atsrnomiya, tabiatshunoslikka va shu kabilarga birlashtirildi. Integratsiyaning bunday usulidan to'liqsiz va to'liq o'rta maktablarda qo'llanilmoqda.

Boshlang'ich maktabda integratsiyani amalga oshiruvchi bo'g'in vazifasini o'qituvchining o'zi amalga oshiradi. U bolalarning matematikaga, yozishga, tabiat ko'pgina boshlang'ich tushunchalarga va yana ko'pgina narsalarga o'rgatadi. O'z kuch va imkoniyatlari darajasida bu ishni amalga oshiradi. Boshlang'ich sinflarda bir o'qituvchining dars berishini, integratsiyaning bir usuli deb hisoblasak ham bo'ladi.

Integratsiyani amalga oshirishning usullari yaxshi yoki yomon bo'lishi mumkin, muammoning mohiyati shundaki, usullarning birlaridan yuz o'girib, ikkinchisidan barcha darajalarida o'qituvchilarning (psixologik va fiziologik) yosh xususiyatlarini hisobga oladigan integratsion choralar tuzishni kiritishidir. Muammoning bunday qo'yilishi integratsiyaning turli ta'lim pog'onalarida turli xususiyatlarga ega ekanligini ko'rsatadi. Boshlang'ich maktabda integratsiyani bir-biriga nisbatan yaqin fanlarni birlashtirish asosida ko'rish maqsadga muvofiq.

Ta'limning keyingi pog'onalaridan u asosiy fanlarning chegaralarini birlashtirishga harakat qiladi. Boshlang'ich ta'lim-tarbiyani integratsiyalashda ijobiy va salbiy omillar mavjudligini hisobga olish kerak. Bu omillar integratsiyaning usullarini belgilab beradi.

Robert Karlosning aytishicha, boshlang'ich maktab faqat o'qish, yozish va sanashni o'rgatibgina qolmasdan, bundan ham muhimroq va kattaroq masalani amalga oshirish kerak. Chunki har bir bolani shakllantirish davrida uning intellektual faolligini rag'batlantirish, tabiiy qobiliyatlarini o'tsirish singari, uning keyingi muvaffaqiyatlari uchun juda muhimdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil fikrlash salohiyatini rivojlantirishda o'quv fanlariaro aloqadorlik mexanizmidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ko'p tomonlama fanlararo aloqadorlik yordamida o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish, rivojlantirish muammosi sifat jihatdan yangi darajada hal etilib qolmasdan, real hayotdagi murakkab muammolarni hal etishga kompleks yondashuvga ham o'rgatib boriladi. Aynan shu sababli ham fanlararo aloqadorlik o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishga kompleks yondashuvning muhim sharti va natijasi hisoblanadi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi: Fanlararo aloqadorlik muammolari yuzasidan R.Safarova, A.Musurmonov, P.Musayev, A.Ch.Choriyev, A.A.Salomov, B.Abdullayeva kabi o'zbek olimlari ham ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borganlar. Bu va boshqa tadqiqot ishlarida fanlararo aloqadorlikning turli yo'nalishlari va tamoyillari, ularning o'quv jarayonida muayyan fanlarni o'zlashtirishda qo'llanilishi, o'quv fanlariaro aloqadorlik asosida tanlangan ta'lim mazmuniga qo'yiladigan talablar ilmiy-amaliy jihatdan hal etilgan.

V.N. Fedorova o'z tadqiqotlarida fanlararo aloqadorlikning o'quv jarayoni samaradorligini oshirishning didaktik imkoniyatlarini ko'rsatib, o'quv fanlariaro aloqadorlik tabiiy fanlar bilan atrof-muhit hodisalarini o'zaro aloqadorlikda va izchillikda ifodalashning didaktik sharti sifatida namoyon bo'lishini ta'kidlaydi.

O'quvchilarda matematik bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish asosida uning boshqa fanlar bilan aloqadorligini tadqiqotchi olimlar turli yo'nalishlarda tahlil qilganlar. Chunonchi, I.Ya.Lerner, M.N.Skatkinlar matematik bilimlar asosida o'quv jarayonini faollashtirish; M.K.Ashirova matematikaning boshqa fanlar bilan fanlararo aloqadorligi xususiyatlari; A.M.Matyushkin, V.T.Kudryavtseva, L.S.Vigotskiy, B.G.Ananov, G.F.Fedores matematik ko'nikma va malakalarni fanlararo aloqadorlikda shakllantirishning psixologik shart-sharoitlari, o'quvchilarda bilishni takomillashtirishning qonuniyatlarini o'z tadqiqotlarida ochib berganlar.

N.S.Fayzullayeva o'z tadqiqotlarida fanlararo aloqadorlikni didaktik jarayon ekanligini, metodologik va amaliy jihatlari bo'lajak o'qituvchilar bilim va ko'nikmalarini oshirish uchun fanlarni aloqadorlikda o'rganish tizimi pedagogikada hozirgi kungacha ishlab chiqilmaganligini, umumiy o'rta ta'lim o'quv predmetlarini o'zaro aloqadorlikda o'quvchilarga o'rgatishda o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi yetishmasligini, oliy o'quv yurtlarida bu muammoga e'tibor berilmayotganligini ta'kidlaydi.

A.Ch.Choriyev badiiy adabiyot ma'naviy tarbiyaning imkoniyati ekanligini asoslab bergan.

Fanlararo aloqadorlik didaktik hodisa sifatida bir qator tadqiqotlarning obyekti bo'lgan: uning tarkibiy tuzilishi, vazifalari, didaktikadagi o'rniga nisbatan o'quv fanlarining aloqadorligini ta'minlash nazarda tutilgan.

Boshlang'ich maktab ta'lim va tarbiyasini integratsiyalash muammosi nazariya uchun ham, amaliyot uchun ham muhim va dolzarbdir. Boshlang'ich talimni integratsiyalash masalasiga keyingi paytda bir qancha yondoshishlar paydo bo'ldi: darsni ikki fan o'qituvchisi olib borishi yoki ikki fanni bir darsga birlashtirib, uni bir o'qituvchi tomonidan o'tilishidan to integratsiyalangan kurslar tashkil etish, boshlang'ich ta'lim mazmunini tubdan o'zgartirishgacha.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida iqtisodiy bilimlarni rivojlantirish muhim pedagogik muammo

hisoblanib, mazkur jarayonda har bir o'qituvchidan integratsion darslarni tashkil etish tamoyillari va yo'llaridan xabardor bo'lishi lozim. Boshlang'ich ta'limni takomillashtirish sohasidagi bunday muammolar fanlararo integratsiyani o'rganish va tadqiq etishni taqozo etadi. Shu sababli bitiruv malakaviy ishimiz mavzusini **“Integratsiyalashgan ta'lim asosida o'quvchilarda iqtisodiy bilimlarni rivojlantirish”** deb tanlashimizga asos bo'ldi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi: Integratsiyalashgan darslar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida iqtisodiy bilimlarni rivojlantirish jarayonining ilmiy-nazariy va amaliy asoslarini o'rganish va tahlil qilish.

Bitiruv malakaviy ishning obykti: Integratsiyalashgan darslar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida iqtisodiy bilimlarni rivojlantirish jarayoni.

Bitiruv malakaviy ishning predmeti: Boshlang'ich sinf o'quvchilarida iqtisodiy bilimlarni shakllantirishda integrallashgan darslarni tashkil etish yo'llari, metod va usullaridan iborat.

Bitiruv malakaviy ish maqsadiga erishish uchun quyidagi **vazifalarni** amalga oshirishga harakat qildik:

- “Integratsiya” tushunchasining pedagogik mohiyatini ochib berish;
- bitiruv malakaviy ish muammosiga doir pedagogik qarashlarni tahlil qilish;
- darslarni integrallash yo'llari va ushbu jarayonga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish;
- integratsiyalashgan darslar asosida o'quvchilarda iqtisodiy bilimlarni rivojlantirishning didaktik tamoyillari va yo'llarini o'rganish;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarida iqtisodiy bilimlarni shakllantirishga doir tajriba-sinov ishlarini o'tkazish va xulosalar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishning metodlari: nazariy-qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatish, pedagogik tajriba, savol-javob, suhbat, o'quv-me'yoriy hujjatlarni o'rganish va tahlil qilish.

Bitiruv malakaviy ishning metodologik asoslari: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», Respublika Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari,

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov asarlari, Xalq ta'limi vazirligining me'yoriy hujjatlari, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish tamoyillari va qonuniyatlari. Sharq mutafakkirlarining qarashlari, pedagog-psixolog olimlarning tadqiqotlari hamda pedagogik manbalarda ilgari surilgan g'oyalarni tadqiqot samaradorligini ta'minlash uchun muhim asos bo'lib xizmat qildi.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy farazini quyidagicha belgilab oldik: Integratsiyalashgan darslar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida iqtisodiy bilimlarni yuqori darajada rivojlantirish mumkin, agarda:

- iqtisodiy tarbiyaning zaruriyati va uning mazmuni haqida o'quvchilarga yetarlicha ma'lumot berilsa;
- boshlang'ich sinfdanoq fanlararo aloqadorlik yo'lga qo'yilsa;
- matematika va tabiat, ona tili va o'qish, jismoniy tarbiya va san'at haqidagi fanlarni o'qitishda integratsiyalashgan darslar tashkil etilsa;
- boshlang'ich sinf o'qituvchilari integratsiyalashgan darslarni tashkil etishga doir metodik materiallar bilan qurollantirilsa.

Bitiruv malakaviy ishning nazariy ahamiyati:

1. Ta'lim jarayonini integratsiyalashning ilmiy-nazariy asoslari o'rganildi.
2. Boshlang'ich ta'lim jarayonini integratsiyalashning amaliyotdagi holati qiyosiy-tahliliy o'rganildi va xulosalar keltirildi.
3. Integratsiyalashgan darslar kichik maktab yoshidagi o'quvchilar nutqi va dunyoqarashini kengaytirishda, ulardagi iqtisodiy bilimlarning yanada boyishiga, hamda dunyo haqidagi yaxlit tasavvurini shakllantirishga yordam beradi.

Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati: Ishning muhim nazariy g'oyalari va amaliy natijalaridan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari integrativ o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda foydalanishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi: Kirish, asosiy qism (2 bobdan va 6 paragrafdan iborat), har bir bob bo'yicha xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

I BOB. Integratsiyalashgan ta'lim asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida iqtisodiy bilimlarni rivojlantirishning nazariy asoslari

1.1. Boshlang'ich sinf o'quv jarayonida ta'lim integratsiyasi mazmuni, mohiyati va uning turlari

Bugungi kunda, ya'ni ta'lim-tarbiyaning hozirgi zamonaviy bosqichida o'qituvchining ishlash tizimi tubdan o'zgarimoqda va pedagogik texnologiyalar, integratsiyalar, innovatsiyalar amaliyotda keng qo'llanilmoqda.

O'quv fanlararo aloqadorlik ta'minlangan sharoitda o'quvchilarning egallagan bilimlari samarali rivojlanishi bilan bir qatorda ularning idrok qilish qobiliyati, faolliklari, qiziqishlari, aqliy intellektual imkoniyatlari ortishiga erishiladi. O'quv fanlararo aloqadorlikni turli o'quv fanlari bo'yicha o'quv dasturlari, darsliklar mutanosibligini ta'minlovchi didaktik imkoniyat sifatida tushunish lozim.

Integratsiya atama va uslubiy nuqtai nazardan hodisa sifatida nima ekanligini ko'rib chiqaylik.

«Intergratsiya» so'zi lotincha *integratio*-tiklash, to'ldirish, «integer» butun so'zidan kelib chiqqan.

Integratsiya tushunchasi quyidagi ikki xil jarayon sifatida talqin etiladi:

birinchidan, tizim, organizmning alohida tabaqalashtirilgan qism va vazifalarning bog'liqlik holatini bildiruvchi tushuncha va shu holatga olib boruvchi jarayon;

ikkinchidan, tabaqalashtirish jarayonlari bilan birga amalga oshirilayotgan fanlarni yaqinlashtirish jarayoni.

XX asrning 60-yillarida o'qitish jarayonini faollashtirish, uni ilmiy-nazariy jihatdan rivojlantirish nuqtai nazaridan yondashgan holda o'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlash sohasidagi harakatlar kuchaydi. O'quv fanlariaro aloqadorlikning turli jihatlari o'rganildi: chunonchi, bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish samaradorligini oshirish didaktik vosita; o'quvchilarning o'quv faoliyatida idrok etish faolliklarini rivojlantirish, ularning idrok etish qobiliyatlarini shakllantirish sharti sifatida; o'qitishda o'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlashda ilmiylik tamoyiliga amal qilish hamda o'qitish

jarayonida fanlararo aloqadorlikni birgina o'quv fani doirasida ta'minlash mumkin emasligi asoslab berilgan.

70-yillarda didaktikada o'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlash muammosiga jiddiy e'tibor qaratildi. Ushbu muammolar tahlili asosida o'quv fanlariaro aloqadorlikning metodologik yo'nalishlari belgilab berildi. Ayniqsa, V.N.Fedorova rahbarligida amalga oshirilgan tadqiqotlar fanlararo aloqadorlikning nazariy asoslarini bayon etganligi bilan muhim ahamiyatga ega. O'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlashning didaktik jihatlari faqatgina muayyan o'quv fanlari mazmunida turli bilim va tushunchalarni ifodalash bilan cheklanib qolmaydi. O'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlashga oid pedagogik tadqiqotlarda uni mustaqil tadqiqot yo'nalishi sifatida mujassam rivojlanayotgan shaxsga nisbatan pedagogik ta'sir ko'rsatish imkoniyati sifatida qarash lozim.

So'nggi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlarda o'quv fanlariaro aloqadorlikning tarbiyaviy ahamiyatiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. O'quv fanlariaro aloqadorlik ta'minlangan pedagogik sharoitda o'qitish jarayonida tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishda o'qituvchining tutgan o'rnini alohida ajratib ko'rsatish lozim.

O'quv fanlariaro aloqadorlik muammolari o'zbekistonlik olimlarning ham tadqiqotlarida yetakchi pedagogik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Chunonchi, A.Ch.Choriyev, U.Q.Musayev, N.S.Fayzullayeva, T.Z.Dayanayeva, A.A. Salomov, M.K.Ashirova va boshqalar o'quv fanlariaro aloqadorlikning turli qirralari, o'quv-biluv jarayonini optimallashtirish imkoniyatlarini tahlil qilganlar.

Hozirgi kunda ta'lim mazmunida matematik bilimlarni taqdim qilish, o'quvchilarning yuqori darajadagi hisoblash ko'nikmalari, tafakkurini shakllantirish yuzasidan e'tiborga olinmay kelinayotgan holatlardan biri o'quv fanlarining matematika bilan o'zaro aloqadorligiga umumiy o'rta ta'lim mazmunida yetarli darajada e'tibor berilmaganligidadir.

Xorijiy mamlakatlarda fan va texnologiyaning jadal sur'atda rivojlanishi olimlar oldida murakkab muammolarni qo'ymoqda. Shu sababli tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlari haqidagi yangi nazariy va amaliy bilimlarni ta'lim

mazmuniga kiritish, barcha fanlardan o‘zaro aloqadorlikda eng zarur bilim va ko‘nikmalarni hosil qilish, ijtimoiy hayot tajribalari va ilm-fanning turli sohalari uchun muhim bo‘lgan bilimlarni o‘quvchilar egallashlari uchun yuksak bilim va mahoratga ega bo‘lgan pedagoglarni tayyorlash nihoyatda zarurdir.

Mazkur vazifalarni yechish uchun o‘quv fanlariaro aloqadorlikni ta‘minlashni ilmiy jihatdan asoslash maqsadida har bir o‘quv fanining fanlararo aloqadorlikdagi mazmunini tanlash, ta‘lim jarayonida qo‘llanilayotgan so‘nggi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda o‘quv fanlarining bir - biri bilan bog‘langan tizimini shakllantirish lozim.

Matematik tushunchalar orqali barcha o‘quv fanlarining o‘zaro aloqadorligi mohiyatiga tayanish, ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar turkumdagi fanlarni o‘qitishning yangi jihatlarini aniqlash zarurdir. O‘quvchilarga taqdim etiladigan matematik bilim, tushuncha va hosil qilinadigan hisoblash ko‘nikmalari umumlashgan mazmunga ega bo‘ladi. O‘quv fanlariaro aloqadorlik ta‘minlanganda o‘quvchilarga o‘zaro bog‘langan bilim va tushunchalar taqdim etiladi.

Demak, "o‘quv fanlariaro aloqadorlik" o‘quv mavzulari mazmunini atroflicha ochib berish uchun zarur. O‘quv fanlariaro aloqadorlik dars mavzularining mazmunini o‘rganish, undagi muhim qoidalarni ajratib olib o‘zlashtirishda quyidagi jarayonlarni faollashtirish imkoniyatini beradi:

- o‘quv mavzularini o‘rganish jarayonida o‘quv fanlariaro aloqadorlik holatini aniqlashga subyektiv yondashish ehtimolini pasaytirish;
- fanning muhim g‘oyalari ochib berishda birinchi darajali ahamiyatga ega bo‘lgan o‘quv fanlari asosiy jihatlariga o‘quvchilar e‘tiborini jalb etish;
- doimiy ravishda idrok etishni murakkablashtirib borib, o‘quvchilar ijodiy tashabbuskorligi va o‘quv-biluv faoliyati mustaqilligi ko‘lamini kengaytirish, ko‘p tomonlama o‘quv fanlariaro aloqadorlikni samarali yo‘lga qo‘yish uchun didaktik vositalarning har xil turlarini qo‘llab, o‘quv fanlariaro aloqadorlikdan foydalanish bo‘yicha tashkiliy ishlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish;
- turli didaktik vositalar yordamida o‘quv fanlarining o‘zaro uzviy birlikda o‘zlashtirilishiga erishish;

- o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasida ijodiy hamkorlikni vujudga keltirish;
- hozirgi zamon talablari asosida o'quvchilar ilmiy dunyoqarashini matematikaning ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o'quv fanlari bilan aloqadorligi vositasida, ijtimoiy hayot bilan hamohang shakllantirish.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning barcha bosqichlarida belgilab berilgan asosiy vazifalardan biri ta'lim sifatini oshirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashdan iborat. Buni amalga oshirish uchun ta'lim tizimlarida ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish, o'quv-tarbiya jarayonlarini jahon ta'lim standartlariga mos keladigan turli pedagogik metodlar bilan boyitish lozim. Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlash faqatgina mantiqiy qoidalar ko'rinishida qurilishi kerak emas, balki unga erishish yo'llarini ko'rsatish lozim. Matematika darslarida o'quvchilarga moddiy dunyo shakli va nisbatlari, mavjud borliqning matematik modellar haqidagi fan ekanligi tushuntiriladi. Raqamlar, shakllar, funksiya, hosila, integral, vektor tushunchalari mavjud borliq hodisalari rang-barangligini aks ettiradi. Shuningdek, o'quvchilarda iqtisodiy bilimlarni rivojlantishda matematika fani alohida o'rin tutadi. Shuning uchun ham matematik tushunchalar boshqa fanlarni o'rganilishida keng qo'llaniladi.

Matematikada yangi mavzuni tushuntirib, masalalarni yechganda, ularni boshqa o'quv fanlari bilan aloqadorlikda amalga oshirilishiga erishish kerak. Natijada o'quvchilar o'rganilayotgan mavzuni chuqurroq tushunib, matematik hodisalarni samarali o'zlashtiradilar. Matematik amallarning isbotlari qanchalik murakkab bo'lmasin, ular moddiy olam hodisalarini obyektiv aloqadorlikda idrok etish imkonini beradi. Matematik tushunchalarni boshqa o'quv fanlari mazmunida ifodalash o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyati samaradorligini ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega.

Matematika shunisi bilan qiziqarliki, uning tarkibidagi tushunchalar, algoritmlardan har qanday o'quv fani mazmunida foydalanish mumkin. O'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlash turli ta'lim sohalari mazmunida taqdim etiladigan bilim va tushunchalarni bir xilda talqin qilishni ko'zda tutadi. Birgina

tushunchaning turli o'quv fanlari tarkibidagi mazmunini o'quvchilarga o'quv fanlari orqali ochib berish zarur. Agar o'qituvchi umumiy tushunchalar va g'oyalarni o'zlashtirish darsning asosiy maqsadi deb hisoblasa, unda o'quvchilar matematik tushunchalar mohiyatini to'la tushunishlari kerak. Fanlararo aloqadorlik asosida tanlangan muayyan o'quv fanining mazmuni u yoki bu fanga aloqador bo'lgan ba'zi umumiy ifodalardan iborat. Matematik bilim va tushunchalarni o'rgatish jarayonida ularning muhim belgilarini muntazam chuqurlashtirish, kengaytirish kerak.

Bizning davrimiz uchun fanlar integratsiyasi, olamning umumiy holati haqida yanada izchilroq tasavvurga ega bo'lish odatiy hol. Lekin bunday muammoni bir fan doirasida hal etish mumkin emas. Shuning uchun o'qitish nazariyasi va amaliyotida o'quv fanlarini birlashtirish tendentsiyasi kuzatilmoqda, ularni fanlararo aloqadorlik asosida mujassamlashtirish va umumiy mazmunini yaxlit modellarda ifodalash jarayoni davom etmoqda.

Boshlang'ich sinflarda amalga oshiriladigan ta'lim jarayonida o'quv fanlararo aloqadorlikni ta'minlash o'quvchilarning bilimlarini tizimlashtirishga, ularning mustaqil fikrlash ko'nikma va malakalarini shakllantirishga, ta'limning quyi bosqichlarida egallagan bilimlarini chuqurlashtirishga yordam beradi.

Ayniqsa, matematika ta'limi uchun bu juda muhim. O'quv fanlararo aloqadorlik asosida bilimlar o'zlashtiriladi va hisoblash malakalari inson faoliyatining barcha sohalarida qo'llaniladi. Matematikaning boshqa o'quv fanlari bilan aloqadorligi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu aloqadorlik natijasida o'quvchilarning bilimlarni idrok etish imkoniyati kengayadi.

Bilim va tushunchalarni o'zaro aloqadorlikda taqdim etish ehtiyoji insoniyat oldida turgan muammolarning borgan sari ortib borishi sabablidir. Turli turkumlardagi o'quv fanlariga oid bilim va tushunchalarni o'zaro aloqadorlikda o'rganish orqali hal etilishi mumkin bo'lgan muammolar soni ham ortib bormoqda.

Yangi davr kishisi uchun integrativ tarzda fikrlash imkoniyatlarini vujudga keltirish zarur. Ta'lim jarayoni natijasiga nisbatan bunday yondashish o'quvchilar

tomonidan bilimlarni izchil o'zlashtirilishiga yordam beradi. Ularni bir holatdan ikkinchi holatga ko'chirib qo'llash ko'nikmasini tarkib toptiradi.

Turli o'quv fanlari bo'yicha o'zlashtirilgan bilimlarni bir darsda o'rganilayotgan yangi mavzu bilan birlashtirish darsda o'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlashga yordam beradi. Aynan ushbu jarayon o'quvchilarning atrof, borliq, inson, tabiat va jamiyat haqidagi tasavvurlarini shakllantiradi va boyitadi. Ular asosida o'quv fanlarining umumiy o'rganish obyektlari hisoblangan, o'quv fanlaridan egallangan bilimlarni umumlashtirish vazifasini samarali hal etadi. O'quvchilar muayyan bir o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida matematik tushunchalar va atamalar yordamida o'z iqtisodiy bilimlarini rivojlantiradilar va o'quv fanlarining o'zaro uyg'unligini his etadilar.

O'quv fanlariaro aloqadorlikning nazariy asoslari mazmunida ularni o'zlashtirishga yordam beradigan didaktik imkoniyatlar namoyon bo'ladi. O'quv fanlari o'zaro aloqadorlikda yaxlit tizimni tashkil etadi. Ta'lim jarayonida muayyan bir o'quv fani qolgan barcha o'quv fanlarini umumlashtiruvchi xarakterga ega bo'lib, ta'lim jarayonining yaxlitligini ta'minlaydi. Bu yaxlitlik quyidagi ko'rinishlarga ega: metodologik, shakllantiruvchi, konstruktiv va hokazo. O'quv fanlariaro aloqadorlikning metodologik funksiyasi zamonaviy bilimlar asosini tashkil etuvchi g'oyalarni o'zlashtirish va rivojlantirish asosida o'quv fanlari tizimida ta'lim jarayonini quyidagi vazifalar asosida takomillashtiriladi:

1. G'oyalarning mazmunan boyligi va umumiyligi bilish shakli sifatida o'quvchilarning dunyoqarashlarini aynan o'quv fanlariaro aloqadorlik yordamida shakllantirishga yordam beradi. O'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishlari va bilish jarayoni samaradorligini oshiradi.

2. O'quv fanlariaro aloqadorlikning metodologik funksiyasi o'quvchi shaxsi rivojlanishining ijtimoiy talablariga javob bera oladigan ta'lim jarayonini takomillashtirishning muhim yo'nalishlarini belgilaydi.

3. O'quv fanlariaro aloqadorlik bilim va tushunchalarni o'zaro aloqadorlikda idrok etish imkoniyatlarini egallashga yordam beradi. O'quv fani mazmunini imkoniyat va ehtiyoj darajasida o'zlashtirish uchun uning barcha

aloqador jihatlarini o'quv dasturi va darslikda ifodalash lozim. O'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlash natijasida o'quv materiallarining yaxlitligiga erishish mumkin.

4. O'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlash natijasida ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiya va texnikani qo'llash uchun qulay shart-sharoitlar yaratiladi. Ular turli o'quv fanlarini o'zlashtirish obyektlari sifatida bilimlar elementlari o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatib, o'quvchining idrok etish imkoniyatini kengaytiradi. O'quv fanlariaro aloqadorlik asosida taqdim etilgan o'quv materiallarini o'zlashtirish o'quvchilar oldiga turli bilimlarni o'zaro aloqador tizimlardan to'g'ri ko'chirish va sintez qilish ko'nikmalarini egallash vazifasini qo'yadi. Bu izlanish yo'llari deduksiya-induksiya, analiz-sintez, umumlashtirish va konkretlashtirishning o'zaro aloqadorligini kuchaytiradi.

5. O'quv fanlariaro aloqadorlik o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashlarini yaxlit tarzda shakllantirish imkonini beradi. Bunday dunyoqarash moddiy, ijtimoiy borliqdagi voqea-hodisalarni har tomonlama o'rganish va baholashda metodologik yo'nalish sifatida ishtirok etadi. O'quvchilarning tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o'quv fanlarini o'rganishda falsafiy umumlashtirishlarini kuchaytiradi.

6. O'quv fanlariaro aloqadorlik o'qitish jarayonida tizimlilikni ta'minlashga yordam beradi. O'qituvchilar o'quv-biluv jarayonida bilimlarni o'zlashtirishning metodologik vazifalarini o'quv fanlariaro aloqadorlikning amaliyot bilan bog'lagan holdagina bajara oladilar.

7. O'quv fanlariaro aloqadorlik o'qituvchini mustaqil bilim olish, ijodkorlikka va boshqa fan o'qituvchilari bilan hamkorlik qilishga undaydi. Bu pedagogik mahoratni oshirishga va o'qitishning boshqa turli vazifalarini hal etishda pedagogik jamoaning birligini ta'minlashga imkon beradi.

Muntazam tarzda tatbiq qilinadigan o'quv fanlariaro aloqadorlik turli sohaga oid bilimlarni o'zlashtirish, ulardan doimiy foydalanish o'quvchilar egallagan ko'nikma, malakalarini mustahkamlashga ham yordam beradi.

O'quv fanlariaro aloqadorlik o'quvchilarda o'quv-biluv faoliyatini rivojlantiradi. O'quvchining bilim olishga bo'lgan qiziqishi hamda o'quv-biluv jarayonining samaradorligini oshiradi. O'quvchilarni tarbiyalash imkoniyatini

kengaytirib, ularning shaxsiga har tomonlama ta'sir ko'rsatadi. O'quv fanlari aloqadorlik bilimlarni tizimli o'zlashtirish, o'quv-biluv jarayonini yaxlit tashkil etishning didaktik imkoniyatlaridan biridir.

Tahlil etilgan materiallar o'quv fanlari aloqadorlik mohiyatini talqin qilishga yangicha yondoshishga va ularni faqatgina fanlar o'rtasidagi bog'liqlik didaktik ekvivalenti sifatidagina emas, balki fanning ijtimoiy ong va inson faoliyati boshqa turlari bilan ham aloqadorligini o'rganishga imkon beradi..

O'quv fanlari aloqadorlik o'quvchilarning idrok etish faoliyatlarini shakllantirib, rivojlantirib borish asos sifatida belgilab olingan o'quv fani g'oyalari va metodlariga tayangan holda amalga oshiriladi. O'quv fanlari aloqadorlik o'quvchilarning o'zlashtirish qobiliyatlarini jadal shakllantiradi va o'quv fanini ilmiylik asosida qurishga xizmat qiladigan umumiy tamoyillarni ochib beradi. Ta'lim sohalari mazmunini masalan, adabiyot, biologiya, matematika o'quv fanlari o'rtasidagi aloqadorlikni hisobga olmasdan aniqlab bo'lmaydi. Shuning uchun o'quv fanlari aloqadorlik alohida o'quv predmetlari bo'yicha ta'lim mazmunini tanlash manbai bo'lib xizmat qiladi.

O'quv fanlarining umumiy tuzilish elementlari o'qitishda o'quv fanlari aloqadorlikni amalga oshirishning quyidagi obyektiv asoslarini yaratadi: 1) o'zlashtiriladigan bilim, tushuncha va dalillar; 2) tushunchalar, qonunlar, nazariyalar; 3) o'quvchi shaxsi dunyoqarashini shakllantiruvchi g'oyalari; 4) tarixiy muammolar va ilmning rivojlanish yo'li; 5) muayyan o'quv fanining metodologik asoslari va metodlari; 6) idrok etishning umumlashtirilgan metodlari; 7) belgilab qo'yilgan maxsus ko'nikma va malakalar; 8) o'quv fanining ilmiy uslubi; 9) taqdim etilgan bilimlarning g'oyaviy-tarbiyaviy jihatlari.

Hozirgi zamonaviy didaktikada ta'lim mazmuni fan asoslarini yaxlit ifodalash tamoyilidan kelib chiqadi:

- o'zlashtirilgan bilimlar tizimi hamda yaxlit faoliyat;
- o'quv fani nazariyalari va metodlari birligi;
- uning ijtimoiy ong va amaliyotning boshqa shakllari bilan munosabatini ifodalovchi yaxlit tizimi sifatida.

Bu yoʻnalish akademik litseylar taʼlim tizimini qayta qurish sharoitida taʼlim-tarbiyaviy jarayonni samarali tashkil etishda muhim ahamiyatga ega. Bunda muayyan oʻquv fanlari boʻyicha egallangan bilimlarni amaliyotga yoʻnaltirishga asoslangan mashgʻulotlar yetakchi oʻrin egallashi kerak.

Buning uchun oʻquv fanlariaro aloqadorlik asosida taʼlim berish jarayonida bir qator tarbiyaviy masalalarni hal etish lozim:

- boshlangʻich sinflarda oʻquvchilarga oʻquv fanlariaro aloqadorlik asosida taʼlim berishda mazkur jarayonning mohiyati, turlari va amalga oshirish yoʻllarini aniqlash;

- boshlangʻich sinflarning amaldagi oʻquv dasturlarida oʻquv fanlariaro aloqadorlikni aniqlashga doir talablarni oʻrganish;

- muayyan fanni chuqur oʻzlashtirishda oʻquv fanlariaro aloqadorlikning asosiy yoʻnalishlari bilan tanishish;

- boshlangʻich sinflarda oʻquvchilarga taʼlim berishda oʻquv fanlariaro aloqadorlikni taʼminlash natijasida hosil qilingan koʻnikma va malakalarni amalda qoʻllash imkoniyatlarini kengaytirish.

Boshlangʻich taʼlim jarayonida oʻquv dasturlarni oʻquv fanlariaro aloqadorlik asosida takomillashtirish va mazmunan bir-biriga yaqin fanlarni oʻrganishni muvofiqlashtirish muammolarini ilmiy asosda hal qilish zaruriyati mavjud. Mazkur dasturlar umumfan gʻoyalari va metodlari, muayyan oʻquv fanini oʻrganishga yangicha yondashuvlar, uning keng ijtimoiy aloqalarini aks ettirishi lozim. Integrallashtirish natijasida oʻquv fanlarining mazmuni oʻzgaradi. Shuning uchun boshlangʻich sinflarning yangi dasturlarida har bir oʻquv fanini mazmunan ilmiy jihatdan boyitishga erishildi. Egallanishi zarur boʻlgan tayanch bilimlar ajratib koʻrsatildi. Oʻquv fanlari mazmunida ijtimoiy ongning turli shakllari va mazkur fanning ishlab chiqarish bilan aloqasi oʻz aksini topdi.

Integratsiyaning turli darajalari ajratiladi: **boshlangʻich**, tabiat haqidagi elementar bilimlarni birlashtiradi; **oral**iq - predmetlar boʻlimlarini boʻlish intergratsiyasi; **yakuniy** - tabiatshunoslikni oʻrganish bilan bogʻliq boʻlgan taʼlimning oxirgi bosqichi integratsiyasi. Shu bilan birga, tabiiy - ilmiy taʼlimni

to'liqroq va kengroq integratsiyalash imkoniyati ham inkor etilmaydi. Maktab ta'limini integratsiyalash jarayonining psixologik asosi sifatida psixolog Yu. A. Samarinning assotsiativ tafakkur to'g'risidagi fikrlari asos qilib olinishi mumkin. Bu fikrlarning mazmuni shundaki, har qanday bilim bu o'xshatish, bilimlar tizimi esa o'xshatishlar tizimidir. Yu. A. Samarin o'xshatishlarning quyidagi turlarini ajratadi:

lokal (mahalliy, ma'lum bir joy, narsa bilan chegaralangan), biror tizimga tegishli bo'lgan, tizim ichidagi, tizimlar orasidagi va aqliy faoliyat darajalarini o'xshatishlarining mos keladigan darajasiga birlashtirish xususiyatiga qarab tasniflaydi.

Fanlararo integratsiyani yo'lga qo'yishda quyidagi prinsiplarga amal qilinadi:

birinchidan, gumanitarlash, ya'ni tabiiy-ilmiy va gumanitar bilimlarni "tabiat va inson" tizimida integrallash;

ikkinchidan, tabiatdagi mavjud aloqalarni o'quvchilarga o'rgatish orqali shaxsni shakllantirish;

uchinchidan, o'quvchilar tafakkurida tabiat haqidagi konkret bilimlarni shakllantirish ustivorligi;

to'rtinchidan, kelgusida ilmiy izlanishga mos keluvchi turli sohalardan materialni tanlash.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida fanlarni integratsiyalash vazifalariga quyidagilar kiradi:

1. O'quvchilarda tizimli fikrlashning asosini shakllantirish.
2. Tabiat birlamchiligi haqida qonunlar, hodisalarga oid bilimlarni shakllantirish.
3. Tabiatshunoslik qonuniyatlarini kuzatish qobiliyatlarini shakllantirish.
4. Bilimlar tizimini ishlab chiqarish, aqliy mustaqillik muammolarini bilish va ularning hal etish yo'llarini topish qobiliyatini rivojlantirish.

Vazifalarga, shuningdek, tabiatni estetik qabul qilish, insonparvar ma'naviy ideallarga ekologik fikrlash va tabiatni asrash munosabatini asos qilish kiradi.

Shunday qilib kurs asosiga qo'yilgan (fikrlarning) g'oyalarning **gorizontal harakati** amalga oshiriladi.

Xuddi shu yo'l bilan **vertikal harakat** ham amalga oshiriladi (sinfdan-sinfga), bunda bir mavzu bolaning o'sishiga qarab murakkablashib boradi.

Yuqorida ko'rsatilganlardan ma'lumki, o'quv fanlarining o'zaro aloqadorligi, ta'lim mazmunining ilmiyligi va amaliyot bilan aloqadorligini ta'minlash "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablarini hayotga tatbiq etishga xizmat qiladi. Ta'lim jarayonida har bir o'quv fanining o'rnini ularning o'zaro aloqadorligini ta'minlash asosida belgilab berish lozim. Bugungi kunda barcha o'quv fanlari nazariy bilimlar hamda amaliy ko'nikmalar hosil qilishga mo'ljallangan holda o'qitilmoqda. O'quv fanlarining o'zaro aloqadorlik darajasini yangi pedagogik texnologiyalar nuqtai nazaridan yondashgan holda ta'minlash va rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki, har bir o'quv fani o'ziga xos mazmunga ega. Bu mazmun mazkur fanning o'quv dasturida o'z ifodasini topadi. O'quv fanlarining o'zaro aloqadorligini ta'minlashda bir qator pedagogik qonuniyatlarga tayanish lozim. Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlashda Davlat ta'lim standartlari, darslik va o'quv qo'llanmalarini takomillashtirishga amal qilish lozim. So'nggi yillarda pedagogika sohasida amalga oshirilgan tadqiqotlarda o'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlashning turli imkoniyatlarini aniqlash zarurligi haqida fikr yuritilmoqda. Shundan kelib chiqib, integratsiyalashgan darslar asosida o'quvchilarda iqtisodiy bilimlarni rivojlantirish muhim hisoblanib, bunda matematika, tabiatshunoslik, o'qish va boshqa fanlar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik ta'minlanishi lozim. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi integratsiyalangan dars mashg'ulotlarini tashkil etish uchun dastlab integratsion ta'lim turlari haqida nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lmog'i lozim.

Integratsiya kursi - o'quv fanlaridan biri bo'lib, fanlararo bilimlarni (integrativ bilimlarni) chuqurlashtirish va oshirish, ularni shakllantirish uchun

o'rganiladi. U har xil turlar, usullar, uslublar, fanlararo integratsiya obyektlari asosida tuzilgan.

Integratsiya kurslarining sinflarga bo'linishini turli asoslarda qilish mumkin: maqsad va muammolar asosida; maktab tabiiy - ilmiy tizimidagi vazifalari asosida; qo'shiluvchi fan tarmoqlari asosida; integratsiya usullari va yo'llari asosida; o'quv rejasidagi o'rni asosida; kursni o'rganishga sarflangan vaqt asosida; o'quvchilar uchun qiyinlik darajasi asosida va h. k. Shuni e'tiborga olamizki, bu kurslarning mualliflari odatda o'z oldilariga bir necha maqsad va muammolarni yechish masalasini qo'yadilar, shu sababli kurslar ko'p maqsadli, turli vazifali bo'ladi.

Ko'p miqdordagi dasturlar va ularni tadbiiq etishga urinishlarni ko'rib chiqib, biz bu kurslar qurilishining asosiy yo'nalishlarini ajratishimiz va ularni mohiyatiga qarab sinflarga bo'lishimiz mumkin.

Ta'limning interaktiv kursi ko'rgazmali ta'lim tizimi bo'lib, integrativ bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish asosida ko'rgazmalilikni vujudga keltirish sirlarini o'rganadi. Ko'rgazmali ta'lim tizimi turli hildagi turlar, shakllar, usullar obyektlar asosida qurilgan.

Integratsion kursning maqsad va vazifalari maktab tabiiy-ilmiy ta'lim tizimida tavsiflanadi. Bilimning integratsiyalashgan (ko'rgazmali) tarmog'ida integratsiyalashning usuli va vositalari: ta'lim rejasidagi o'qitish joyida vaqtning hajmiga qarab, shu kursni to'la o'zlashtirish vaqti o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi – ko'p maqsadli va rang barangliligi hamda ko'p funksiyaga egaligi bilan tavsiflanadi.

Integratsiyalashgan darslar quyidagi yo'nalishlarda tashkil etiladi:

- ko'p predmetlilik – bunda (ikki yoki undan ortiq) fundamental fanlarni qiyoslash;
- chegara fanlar asosida – yangi fanlarni vujudga keltirish, buning asosida yangi tabiiy hamda ilmiy fanlar vujudga keladi;
- asosiy (o'zak) fanlar – zamonaviy bilimlarning hamma tarmoqlariga singib ketuvchi fanlar va umumiy ilmiy tushunchalar, qoidalar va nazariyalardir ;

- kompleks obyektlarni o‘rganish, bu – « koinot », « odam », «muhit» degan tushunchalarni birlashtirish;
- mahalliy (tabiiy – ilmiy bilimlar) va global (muhim) muammolar – ilmiy, ekologik, polietnik, sanoat va mamlakatning madaniy rivojlanishi bilan millatning bugungi kundagi tutgan o‘rni chambarchas bog‘liq;
- faoliyat asosida - o‘quv-tarbiya faoliyatining har xil ko‘rinishlari, ya’ni kitoblar, kuzatishlar, tajribalar, bilim, mahorat va ko‘nikmalar;
- tabiat va jamiyatning rivojlanish qonunlariga bo‘lgan shaxsiy munosabatni shakllantirish: ko‘rgazmalar asosida integratsiya, didaktik tizimida (o‘qituvchi va o‘quvchining faoliyati);
- ko‘rgazmali yondashishga olib keluvchi metodlar va usullar – evristik suhbatlar (savol-javob uslubi), rejali boyitadigan suhbatlar, ekskursiyalar, ijodiy ishlar, mustaqil ishlar, pantomimika, sahna ko‘rinishlari, namunali qiroat bilan o‘qish, insho yozish, diktant, bayon yozish, matematik masalalarni yechish;
- Tabiat va inson yagona tizimi va o‘zaro aloqada faoliyat ko‘rsatish hamda insonning yer kurrasida yashab qolishi uchun ilmiy asoslangan foydalanishni tashkil qilish zarurligi;
- Ilmiy o‘rganishni insonparvarlashtirish jarayoni ijtimoiy gumanitar, tabiiy – amaliy va texnik fanlar metodlarining o‘zaro ta’siri, ilmiy faoliyatning gumanitar – shaxsiy metodlari sohalarida ifodalandi;
- Ta’limni rivojlantirishning eng umumiy samarali yo‘li zamonaviy fanni turlicha uslubiy yondashuvlarini qulay o‘zlashtirish;
- «tabiat – inson» tizimidagi tabiiy – ilmiy va gumanitar fanlarni integratsiyalashuvi sifatidagi gumanizatsiyalashuvi;
- Tabiatda mavjud obyektiv aloqalarni o‘zlashtirish orqali o‘quvchilar shaxsini shakllantirish;
- Boshlang‘ich sinflarda integratsion bilim malakalarini va ko‘nikma hosil qilish;
- Har bir o‘quv predmetini o‘qiyotgan paytda o‘quvchilarga tog‘ri keladigan psixik qozg‘alish hosil qilishi, bu materialni o‘zlashtirilishiga katta yordam beradi,

uni tez yodda saqlashga, emotsional anglashga, fikrlash qobiliyatining o'lishi, nutq va tasavvurining rivojlanishiga olib keladi.

Integratsiya negizida o'quvchilarda fikrlash qobiliyatining har xil turlarini shakllantirish, bu esa bilim (anglash) jarayoni bilan chambarchas bog'liqdir:

- Tabiatda mavjud bo'lgan obyektlar orqali o'quvchilarning shaxsiyatini shakllantirish;

- «tabiat – inson» tizimida aniq bilimlarga ega bo'lishi uchun fikrlash qobiliyatini shakllantirish;

- Materiallarni anglab yetish va didaktik adabtatsiyani shakllantirish uchun o'rganuvchi materialni bilimning har xil tarmoqlaridan olish uchun dunyoning zamonaviy ilmiy kontekstidan foydalanish;

- Tabiatning obyektlari va ko'rinishlarini, jarayonlarini, qonunlarini iqtisodiyot gumanitar va demokratik bilimlarini shakllantirish;

- Bilim, ko'nikma, malaka tizimini ishlab chiqish;

- Maktab ta'lim kurslaridagi integratsiyaning ma'nosi, keng miqdordagi fikrlar va dalillar majmuasi, bir – biriga yaqin fanlarning birlashuvi ;

- Maktab o'quvchilarida har xil turdagi fikrlash qobiliyatini shakllantirish, buning uchun ruhiy mashqlardan foydalanish, mavzuni tez o'zlashtirishiga yordam beradi, uni eslab qolish va emotsional anglash qobiliyatini shakllantiradi.

Ko'p fanlar integratsiyasi

Ularni yana universal yoki bir necha asosiy tizim kurslarini almashtiruvchi umumiy deb ham atash mumkin. Masalan, o'qish, tabiat, rasm darslarini bitta umumiy darsga birlashtirish.

Odatda, bunday kurslarning mualliflari tabiiy fanlar materiallarini birlashtirib, ularni bir ma'lum tizimga keltirishadi va o'z kurslarini integrativ yoki kompleks (umumiy) deb ataydilar. Ko'rinib turibdiki, boshlang'ich ta'lim tizimidagi tabiiy fanlar materiallarini berishda to'g'ri ketma-ketlikka faqat darslar tuzilishini saqlab qolibgina erishish mumkin. Ba'zi e'tiborli olimlar ta'kidlaydilar, bu an'anaviy maktablarda ham tabiiy fanlarni ketma - ket o'rganish yo'li bilan ham hal qilinmoqda. Bir qator

olimlar boshlang'ich ta'limga ham darslarga ajratib o'qitish an'analari tarqalgan deb hisoblaydilar.

Tabiiy fanlarni o'qitishning tizim bo'yicha davom ettirishni bekor qilish va soddalashtirish uchun ko'pgina mualliflar gumanitar sinflar uchun umumlashtirilgan kurslar (darslar) taklif qiladilar. Bularga umumiy tushunchalar beruvchi, bolalarda tabiiy fanlarni o'rganishga qiziqish uyg'otish vazifasini bajaruvchi, tabiat haqida qiziqarli ko'rinishda hikoya qiluvchi boshlang'ich tabiiy fanlar kurslari (masalan, boshlang'ich sinflardagi «Tabiatshunoslik») kiradi.

Chegaradosh fanlar asosida tuzilgan kurslar.

Keng integratsiya jarayoni oldingi ilmiy yo'nalishlarni bog'lovchi yangi tabiiy fanlar va ilmiy yo'nalishlar hosil bo'lishiga olib keldi.

Boshlang'ich sinflarda ekologik ta'limni kuzatib, o'qish, tabiatshunoslik, mehnat (tabiiy materiallar bilan ishlash), rasm fanlariga ekologik mavzular kiritilgani ko'rinadi. Bir - biriga yaqin chegaradosh fanlarning qatoriga molekulyar biologiya, biofizika, geofizika, biokimyo, astrofizika, astrokimyo kiradi. Bu fanlar asosida maktab integrativ tabiiy fanlari tuziladi.

Asosiy fanlar asosida tuzilgan kurslar.

Zamonaviy bilimlarning har bir bo'limini qamrab oluvchi asosiy fanlar asosida tuziladi. Ular qatoriga pedagogika, pedagogik texnologiya, pedagogik psixologiya, inson yoshi psixologiyasi, fan rivojlanishi jarayonini o'rganuvchi pedagogik-psixologiya, fanning insonning boshqa hayot jarayonlariga bog'liqligini o'rganuvchi: kibernetika-boshqarish, aloqa va informatsiyani qayta ishlash: informatsiyaning tuzilishi va xususiyatlarini, uning shaxs shakllanishidagi o'rnini o'rganuvchi informatika. Inson hayotining turli jarayonlarida ilmiy yo'nalish bo'lgan sistemalarning aloqalarini o'rganuvchi sinergetikaning qo'llanilishi. Bu sinfdagi integrativ kurslarning mazmuni shu fanlar ma'nosi va strukturasi asosida tuziladi.

Umumiy ilmiy tushunchalar, qonuniyatlar, nazariyalar asosidagi kurslar.

Bu asosda integrativ kurslar yaratish haqidagi fikrlar yaxshi natijalar berdi. Mualliflar orasida yuqori darajadagi umumiylikni bildiruvchi tushunchalar: «materiya», «harakat», «modda», «maydon», «energiya» va boshqalar ko'p ishlatildi. Qonunlar orasida sermahsuli tabiatni saqlash qonuni, odamlarning ish faoliyatlari tufayli rivojlanishi, tabiatga tuyg'u bilan qarash bo'ldi.

Nazariyalar orasida integrativ kurs yaratish uchun asos bo'lib asosiy tabiiy - ilmiy nazariyalar xizmat qiladi. Shunisi e'tiborga loyiqki, bu asosda integrativ kurslar yaratishga urinishlar ko'p bo'lgan bo'lsa ham, ular qovishmaganligi va ma'lum ketma - ketlikka, didaktik maqsadga ega emasligi bilan ajralib turadi.

Kompleks obyektlar asosidagi integrativ kurslar.

Integrativ kurs yaratishga asos bo'lgan kompleks obyektlarga Yer, biosfera, odam va uning yashash muhiti misol bo'la oladi. Bu kurslarning bir xil mavzularida bir obyekt turli fan nuqtai nazaridan ko'riladi.

Shu xildagi integratsiya o'tgan asrning yigirmanchi yillarida maorif tizimida qo'llanilgan. Keyinchalik u bekor qilingan, lekin bizning davrimizda, aytish mumkinki qaytadan tug'ildi. Bizning nazarimizda, ma'lum hajmda u tabiiy fanlar ta'limiga yaxshi ta'sir ko'rsatadi.

Turli muammolar asosidagi integrativ kurslar.

Integrativ kurslarni turli lokal (mahalliy) va global (umumjahon) muammolar asosida tadbiq etishga urinishlar ko'p uchraydi. Bunda tabiiy ilmiy bilimlarning muammolar asosida birlashtirilishi qo'llaniladi. Bu sinfdagi integrativ kurslar (asosan ekologiya bilan bog'liq kurslar) maktablar ish faoliyatida keng tarqalgan.

Muammolar bo'yicha tuzilgan integrativ kurslar rivojlanishiga global ta'limning rivojlanishi ham turtki bo'ldi.

Bu yoʻnalishning tarafdorlari zamonaviy shaxsning rivojlanishiga bugungi kunda mamlakatlarning va millatlarning ekonomika, fan, siyosat, maʼnaviyatining uzviy bogʻliqligidan kelib chiquvchi globallik omili kuchli taʼsir koʻrsatadi degan tasdiqlashni asos qilib olganlar.

Faoliyat asosidagi integrativ kurslar.

Tabiiy fanlar asosini oʻrganishda oʻquvchilar kitob bilan ishlash, kuzatishlar olib borish, tajribalar oʻtkazish, olingan bilimlarni bir tizimga solish - turli oʻquv—taʼlim ish faoliyati bilan toʻqnashadilar. Oʻquvchilarni faoliyatning bir turi bilan tanishtiruvchi bir butun kurs yaratish maqsadga muvofiqdek koʻrinadi. U oʻqitish jarayonining har bir vaqtida foydali boʻlishi mumkin va kichik hajmda ham tabiiy fanlarni oʻqitishda, oʻquvchilarning ortiqcha kuch sarf qilishlari muammosini hal qilishda, mustaqil bilim olish koʻnikmalarini rivojlantirishda yordam beradi. Bu sinfdagi integrativ kurslarni yaratish va ularni oʻquv jarayoniga tadbiiq qilish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. Tabiiy fanlarni oʻzlashtirishni tekshirishlar natijalari shuni koʻrsatadiki, oʻzbek oʻquvchilari chet ellik oʻquvchilarga nisbatan koʻp maʼlumot oʻzlashtirsalar ham, uni tadbiiq qilishda sezilarli darajada orqada qoladilar.

1.2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida iqtisodiy bilimlarni rivojlantirish pedagogik muammo sifatida

Inson o'z kamoloti davomida turli yo'nalishda tarbiyalanadi. Ular ma'naviy, ma'rifiy, ekologik, vatanparvarlik, huquqiy, mehnatsevarlik, fuqarolik, estetik, jismoniy va iqtisodiy tarbiya kabi yo'nalishlarda joriy etilgan. Ular ichidan iqtisodiy tarbiya yosh avlodni jamiyat va davlat, qolaversa, oiladagi jarayonlarga ongli munosabatini shakllantirish bilan birgalikda, tejamkorlikni, isrofgarchilikka nafratni, ishbilarmonlikni, tadbirkorlikni, tashabbuskorlik, iqtisodiy hisob-kitob va shu kabi iqtisodiy jihatlarni qamrab oluvchi insoniy fazilatlarini yuksaltirishga xizmat qiluvchi tarbiyaviy asosdir. Demak, iqtisodiy tarbiya insonning ham ma'naviy jihatdan, ham moddiy jihatdan yuksaklik sari sa'y-harakatlarini ta'minlashdan iborat.

Barkamol avlodni tejamkorlik ruhida tarbiyalashda iqtisodiy tarbiyaning ahamiyati beqiyos. Ma'lumki, insonning kundalik turmush tarzi mehnat yoki boshqa bir faoliyat turi bilan bog'liq bo'ladi. Ularda mehnat (xoh jismoniy bo'lsin, xoh aqliy) sarfining nechog'liq kam bo'lib, yuqori samaradorlikka erishish muhimdir.

Kam mehnat sarflab, ko'proq (yaxshiroq) natijani qo'lga kiritish ushbu sohadagi optimal variant hisoblanadi. Iqtisodiy tarbiya talaba-yoshlarning tevarak-atrofdagi muhitni, muayyan buyumlarni anglab, ularni avaylab-asrash va bilib olishning mustahkam vositasi bo'lib, ularga nazariy bilimlarni qo'llash imkoniyatini yaratib beradi va ularning ongini hissiy tasavvurlar bilan boyitadi.

O'zbekiston Respublikasida, bozor munosabatlari shakllanayotgan sharoitda o'quvchilarga iqtisodiy bilimlarni berish va ularda iqtisodiy faoliyatni yurita olish ko'nikma, malakalarni shakllantirish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy tarbiya - o'quvchilarga iqtisodiy bilimlarni berish, ularda iqtisodiy faoliyat (oilada budjetini shakllantirish, oila xo'jaligini yuritish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, ko'paytirish, savdo-sotiq munosabatlarini to'g'ri tashkil etish va hokazolar)ni

tashkil etish ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi sanaladi.

Iqtisodiy tarbiya ta'lim muassasalarida yo'lga qo'yilayotgan iqtisodiy ta'lim bilan chambarchas holda olib boriladi. Iqtisodiy tarbiyani tashkil etishda oila, ta'lim muassasasi va jamoatchilik o'rtasidagi mustahkam hamkorlikka tayanish ijobiy natijalarni kafolatlaydi. Iqtisodiy ta'lim va tarbiyaning asosiy **maqsadi** o'quv mashg'ulotlarini olib borishda o'quvchilar ongida tejamkorlik, ishbilarmonlik, tadbirkorlik kabi iqtisodiy jihatlarni o'z ichiga oluvchi xislatlarga nisbatan ongli munosabatni shakllantirishdan iborat.

Iqtisodiy tarbiyani tashkil etish jarayonida quyidagi **vazifalar** amalga oshiriladi:

- o'quvchilarga iqtisodiy bilim asoslari borasida chuqur bilimlar berish va ularni takomillashtirish;
- o'quvchilarda iqtisodiy ong va tafakkur, xususan, mavjud moddiy boyliklarga nisbatan oqilona munosabatni tarbiyalash;
- ularda muayyan kasbiy yoki ishlab chiqarish ko'nikma va malakalarini shakllantirish;
- ularni iqtisodiy ishlab chiqarish jarayoniga faol jalb etish;
- o'quvchilarda tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishga nisbatan ehtiyoj va layoqatni yuzaga keltirish;
- ular tomonidan tor doirada bo'lsada tadbirkorlik faoliyatining yo'lga qo'yilishiga erishish.

Iqtisodiy tarbiyada tejamkorlik, tadbirkorlik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, iqtisodiy hisob-kitob, oila budjeti va boylik kabi tushunchalarning muhim ahamiyati bor.

Iqtisodiy tarbiyaning dastlabki bosqichlari uzoq tarixga ega. Ular kishilik jamiyati taraqqiyotiga mos ravishda takomillashib kelavergan.

Iqtisodiy tarbiyaga tegishli ma'lumotlarni ilohiy kitob - Qur'oni Karimda va muqaddas kitob - Hadisi sharif hamda «Avesto» bitiklarida ham topish mumkin. Iqtisodiy tarbiya Sharq mutafakkirlarining asarlarida ham

bayon etib kelingan. Jumladan, Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy asarlarida qozixonada meros va uni taqsimlash bo'yicha alohida xodim faoliyat ko'rsatishi qayd etilgan. Ular shubhasiz qozixonadagi iqtisodiy muammolar yechimlarini hal etish uchun jalb etilgan.

Bu borada Forobiyning «Inson o'z mablag'ini sarflashni bilishi kerak. Pul sarflashda qizg'anchilik qilish xasislikka olib keladi. Pullarni rejasiz ishlatish esa insonni beboshlikka etaklaydi», degan fikri o'rinlidir.

Forobiy: «Mulk ottirishda unchalik xavf yo`q, ammo uni ehtiyot qilib saqlamaslik mumkin emas. Agar boshqa birovlar hisobiga mulk orttirganlar jazolanmasalar, u holda shahar aholisidan insof va shuhrat yo`qoladi. Mulkni ehtiyot qilib saqlab o`z ehtiyoji uchun ishlatlsa, bu yomon ish hisoblanmaydi».

Forobiy odamlarni mulkiy qonunlar asosida tarbiyalashga e'tiborni qaratadi. «Agar shahar aholisi ma'rifatsiz, tajribasiz odamlar va bolalardan iborat bo`lsa, u holda ular qonun o`rnatgan tartib va boshqaruv usulini qabul qilmaydilar» deb yozadi.

Ko`rsatilgan qonunlar asosidagi tarbiya ya'ni huquqiy tarbiya jamiyat hayotida muhim o`rin tutadi. Huquqiy tarbiya faqat o`zinigina emas, balki boshqalarni ham o`ylab, ishning ko`zini bilib yashashga, xizmat qilishga, mulkdan, resurslardan to`g`ri foydalanish ulardan yaxshi natija olishga yo`l ochib beradi. Bu fikrlar bugungi kunda Respublikada bozor munosabatlari qaror topib, mulkdorlar sinfi shakllanib borayotgan bir vaqtda katta ahamiyat kasb etadi.

Forobiyning iqtisodiy qarashlarida ishlab chiqarish uchun zarur bo`lgan xarajatlar, ularning miqdori, ularni taqsimlash, ulardan oqilona foydalanish masalalari ham o`rin olgan. Yashash uchun zarur bo`lgan mablag`lar, mahsulotlar va mulk to`g`ri taqsimlanmasa, me'yori bilan xarajat qilinmasa, bunday ishdan noma'qulchilik kelib chiqadi. «Bu boshqarilishi eng qiyin bo`lgan ishdir», kimda-kim o`z ehtiyojida bo`lgan mulkni foyda chiqarish uchun muomalaga qo`ymasa, uni faqat o`zi uchungina jamg`arsa, juda katta zarar keltiradi».

Forobiy taqsimot masalalariga o`ziga xos yondoshadi. U jamiyat va odamlar qo`lidagi mulk va noz-ne'matlarni to`g`ri taqsimlash yo`lga qo`yilmasa, ko`pchilik

aholi nochor ahvolga tushib qolishi mumkin, degan xulosaga keladi va taqsimot mavjud mulk, mahsulot, boyliklar hisobini to'g'ri yo'lga qo'yishini uqtiradi. «Avvalo: er va joylarning miqdori, keyin ularning egalari va tutgan o'rinlari, so'ngra nihoyatda zarur bo'lgan narsalar: oziq-ovqatlar, ekiladigan erlar, saroy va shaxsiy uylarning miqdori hisobga olinishi zarur» deb ko'rsatadi.

Forobiy yana o'z asarlarida iqtisodiyot fanining muhim tushunchasi (kategoriyasi) bo'lgan ehtiyojlar masalasiga alohida e'tibor berib, ehtiyojlarini qondirishda mehnatning o'rni beqiyos ekanligini ta'kidlaydi.

Sharq iqtisodiy tafakkurida ehtiyojlar va ularni qondirish masalalariga alohida e'tibor beriladi. Chunki bu ehtiyojlar tizimida insonning shunday ehtiyojlari borki, ular faqat harakat qilish, mehnat va yaratuvchanlik (ishlab chiqarish) natijasidagina qondiriladi. Ma'lumki, inson ehtiyojlari orasida eng muhimi, mehnat qilish ehtiyoji bo'lib boshqa barcha ehtiyojlarni qondirishga shu orqali erishiladi.

Abu Ali Ibn Sino (980-1037) iqtisodiy qarashlari. Ibn Sino iqtisodiy qarashlarida ham Forobiy singari ehtiyojlar, ularni qondirish muammolari alohida o'rin olgan. U ayniqsa, odamlar o'z ehtiyojlarini qondirishga bir-birlari bilan bog'lanishlari, aloqa va hamkorlikda bo'lishlari kerakligini uqtiradi. Chunki har bir odam alohida ishlasa, u qanchalik kuchli va qobiliyatli bo'lmasin o'z ehtiyojlarini qondira oladigan barcha mahsulotlarni ishlab chiqara olmaydi. Shu sababli ular o'zaro iqtisodiy kelishuv asosida, ya'ni mehnat taqsimoti orqali mehnat qilishga, iqtisodiy faoliyat olib borishga intiladilar. Shuning uchun Ibn Sino odamlar jamiyatdan tashqari yashay olmasligini, u ma'lum jamiyat muhitidagina o'zaro iqtisodiy hamkorlik tufayli o'z hayotlarini quradilar, o'zlarini hayotiy ehtiyojlarini qondirishda ular adolat tamoyillariga asoslanishlari kerak, deb uqtiradi.

Ibn Sino «Tib qonuni»da agar hayvonlar tabiat ne'matlariga qanoat qilib yashasalar, odamlarga bu ne'matlar etmaydi, ular oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joyga bo'lgan ehtiyojlarni qondirishlari lozim. Agar hayvonlar tayyor tabiat ne'matlarini o'zlashtirib olsalar, odamlar o'z mehnatlari bilan zarur ne'matlarni yaratadilar, shuning uchun ham ular mehnat qiladilar va turli xil faoliyat –

dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik bilan mashg'ul bo'ladilar, deb yozadi.

Ibn Sino yana davlat har bir odamning jamiyatdagi o'rnini aniq belgilab berishi, qanday faoliyat bilan shug'ullanishini tashkil qilib berishi, davlatda tekinxo'rlar, boshqalar hisobiga mehnat qilmasdan yashovchilarga kurashishi zarur, deb ko'rsatgan.

Ibn Sino mamlakatda savdo munosabatlarining iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'rniga ham alohida e'tibor bergan. U savdo aloqalari shaharlar, mamlakatlar, xalqlar o'rtasida yo'lga qo'yilishi ijtimoiy taraqqiyotga olib keladi, odamlar o'rtasida aloqalar kengayadi, ular bir-birlarini tushunadilar, savdo-sotiq orqali mintaqaviy, hududiy aloqalar yanada rivojlanadi, degan fikrda bo'lgan. Ibn Sino iqtisodiy qarashlarida iqtisodiy munosabatlar, uning muammolari va ularni takomillashtirish masalalari salmoqli o'rin egallaydi.

Ibn Sino insonlarni jamiyatda tutgan o'rnini va vazifalariga qarab guruhlarga ajratadi:

A) Davlat idoralarida xizmat qiluvchilar va jamiyatni boshqarish ishlari bilan shug'ullanuvchilar.

B) Bevosita xom-ashyo, zarur mahsulotlar ishlab chiqarish bilan mashg'ul bo'lganlar.

V) Davlatni qo'riqlash, uni tashqi xujumlardan saqlashni ta'minlovchi harbiylar.

Ibn Sinoning iqtisodiy qarashlarida oila, shahar, davlat miqyosida daromad bilan xarajatlar (bugungi kunda bu byudjet deb yuritiladi) o'rtasidagi munosabatlarga ham keng o'rin berilgan. Uning fikricha, oila, shahar, xatto davlat miqyosida hosil bo'lgan daromadlar, shu hududlarning xarajatlarini qoplashga etarli bo'lmoqi kerak. Ammo Ibn Sino yashagan davrda davlat moliyasida byudjet tushunchasi shakllanmagan bo'lsada, u Nizomul Mulkning «Siyosatnoma» asaridan oldin davlat daromadlari va xarajatlari haqida fikr yuritgan. Agar xarajatlar daromadlardan ortiq bo'lsa, uni qoplash uchun zahira (rezerv) bo'lishini ham ta'kidlagan.

Ibn Sino mamlakatni boshqarishga qaratilgan ko'pgina fikrlar ham bildirgan. U boshqarishning ikki yo'li haqida gapirib: biri o'z xalqini to'q va ma'rifatli qilish, qaqragan erlarga suv chiqarish, nochor dehqonlarni soliqdan ozod qilish, ilm-ma'rifat yo'li, ikkinchisi esa hokimiyatni ochko'z va kaltafahmlar qo'lga topshirish-dir. Bu kimsalar dehqonlarning oxirgi nonini ham tortib oladilar, ularda na ma'rifat, na hunarga intilish bor, butun fikri xayoli lashkar to'plash bo'ladi, xalq noroziligini bosish uchun sipohiylariga tayanadilar.

Ibn Sino kelajagi fozil davlat qurish haqida fikr yuritib, uning ayrim yo'nalishlarini aniqlashga harakat qilgan. Uning aytishicha, eng muhim axloqiy boylik-adolatdadir. Inson qanchalik bilimdon bo'lmasin axloqiy qoidalarga tayanmasa, u odobsiz bo'ladi, yomonlikka yo'l qo'yadi. Ibn Sino o'zining «qush tili» asarida ikkiyuzlamachilik, yolqonchilik kabi illatlarni qoralaydi, insonlar ustidan har qanday zo'ravonlikni inkor etadi. Bugun mamlakatimizda kelajagi porloq, huquqiy-demokratik davlat qurishning nazariyasi ishlab chiqilmoqda. Bu masalani echishda Ibn Sinoning qarashlari ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Ibn Sino fikrlaridan kelib chiqib, shuni ta'kidlash lozimki, jamiyatning barcha a'zolari uchun mehnat qilish inson mehnatining pirovard natijasiga qarab taqsimlanishi, haddan tashqari boylik orttirishga va muhtojlikka yo'l qo'ymaslik, davlatlar, mamlakatlar o'rtasidagi har qanday siyosat va iqtisodiy masalalar tinch yo'l bilan o'z echimini topishi, hal qilinishi kerak.

Yusuf Xos Xojibning iqtisodiy qarashlari uning «Qutadg'u bilig» nomli asarida bayon etilgan. U ushbu asarda mehnatga to'g'ri haq to'lash, mehnatni taqdirlash, boshqalar mehnatining qadriga etish, moddiy manfaatdorlik, kasb-hunar egallash, kuchli ijtimoiy himoya masalalariga to'xtalgan. Asarda dehqonlarga, chorvadorlarga, savdogarlarga, hunarmandlarga bag'ishlangan alohida-alohida boblar bor. «Xizmat ahli-deb yozadi olim, o'z mehnati natijasidan umidvor bo'ladi. Umidvor topmagan xodimning ko'ngli sinadi... xizmatiga loyiq taqdir ko'rgan xodimning boshi ko'kka etadi» (qutadg'u bilig» T.1990 y. 63-bet). U davlat, el-yurt va uning boshlig'i boy bo'lishi uchun, odamlarni, yumushchilarni boyitishi kerak, degan qoyani olg'a suradi. «Xodim boy bo'lsa, davlat, el boshlig'i boyiydi,

el boshlig`ining kuchi (davlatning kuchi) xalq bilan. Shuning uchun xalq to`q bo`lsin» deb yozadi. Ulug` mutafakkirning iqtisodiy g`oyalari respublikamizda olib borilayotgan bozor islohotlari bilan hamohang bo`lmoqda, deb aytishga asos bor. «Islohotlar inson manfaatlariga mos kelgan, uning talab va ehtiyojlarini qondirishga yordam bergan; turmush darajasini oshirishga qaratilgan taqdirdagina ahamiyatli bo`lishini hamisha yodda tutmog`imiz lozim»¹ – deb uqtiradi Prezidentimiz. Har bir inson hayotining darajasi u qilayotgan mehnatga, uning miqdori, sifatiga bog`liq bo`lmasa, hech qanday iqtisodiyot rivojlanmaydi va taraqqiyot bo`lmaydi. Inson mehnatining to`g`ri va adolatli taqdirlanishi iqtisodiyotga katta miqdorda kapital sarflash bilan teng. Shuning uchun ham I.Karimov respublikamizda iqtisodiy islohotlarning strategik maqsadlaridan biri «kishilarda yangicha iqtisodiy fikrlashni shakllantirish, ularning dunyoqarashini o`zgartirish, har bir kishiga o`z mehnatini sarflash sohasi va shakllarini mustaqil belgilash imkonini berish kerak»² deb ko`rsatadi.

Yusuf Xos Xojib iqtisodiy manfaat masalalariga ham to`xtalib: «Aslida qimirlagan jon, nafni o`ylab harakatlanadi»-deb yozadi.

Adib hunar o`rganish, yoshlarni hunarga o`rgatish masalalariga alohida e'tibor bergan va «turli-tuman hunarlarni o`rganmaslik tubanlik belgisidir»-degan g`oyani olg`a suradi.

Insoniyat har doim ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslangan jamiyat qurishni orzu qiladi va uni barpo etish uchun kurashib keladi.

Alisher Navoiy ham o`zining butun umrini shu umuminsoniy maqsadga bag`ishlagan edi. U o`z asarlarida moddiy ne'matlarni taqsimlash, ularning adolatli tashkil etilishi, xizmatga yarasha taqdirlash (haq to`lash) masalalariga katta e'tibor bergan. U yasovul misolida shunday deb yozadi: «Agar u xizmatiga yarasha xaq olish xayolida bo`lsa, u ota merosi va ona suti kabi haloldir».

Bu bilan Navoiy ikki iqtisodiy fikrni olg`a suradi:

1. I.Karimov. O`zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo`lida: -T.: O`zbekiston, 1995 yil, 19-bet.

2. I.Karimov. O`zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo`lida: -T.: O`zbekiston, 1995 yil, 18-bet.

1. Mehnatning miqdori va sifatiga qarab taqdirlanishi.
2. Mehnatga yarasha xaq olish ona sutidek halol ekanligi.

Alisher Navoiy jamiyatning boyishida savdo-sotiq, tijoratning muhim rol o'ynashi haqidagi iqtisodiy g'oyani merkantilistlardan ancha ilgari asoslab berganiga shubha yo`q. «Savdogar, deb yozgan, - Alisher Navoiy yolg'iz foydani niyat qilmasligi, savdo qilib foyda topaman, deb ortiqcha kema surmasligi, mol va pul ko`paytirmaman, deb jonsarak bo`lmasligi kerak». «Savdogar boj-xirojni berish o`rniga o`z molini yashirib, o`z obro`sini to`kmasa yoki topgan-tutganini merosxo`rlari sotib sovurishi uchun to`plab qo`ymasa yoki biror xodisa qo`zg`ash uchun sarflamasa, jamqarsa yaxshi bo`ladi».

Alisher Navoiyning bu fikrlaridan bugun shunday xulosa qilish mumkinki savdo, bozor, tijorat, muomala jarayoni iqtisodiyotni rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega bo`lib, bozor tavarlarni ko`paytirishga, taqchillikni kamaytirishga xizmat qiladi, savdo davlat byudjeti daromadining manbai, mamlakat iqtisodiy salohiyatining ruknlaridan biri bo`lib hisoblanadi. Eng muhimi, shoir savdogarlarni diyonatga, insofqa chaqiradi.

Alisher Navoiy dehqonlar, ularning moddiy ne'matlar yaratishda asosiy kuch ekanligi, jamiyat iqtisodiy ahvoli, taraqqiyoti, aholi farovonligini ta'minlash masalalari dehqon mehnati va uning faoliyati bilan chambarchas bog`liqligini anglab etgan. U «Olamning obodonligi dehqondan, mehnat ahli shodon, ular shodon». «Dehqon qanday ekin ekishiga qilsa harakat-elga ham oziq-ovqat etkazar, ham barakat». Bu bilan Alisher Navoiy moddiy ne'mat yaratuvchi boshqa mehnat ahli-hunarmandlar, tadbirkorlar, mayda tovar ishlab chiqaruvchilarning roli va ahamiyatini kamsitmaydi, balki u o`z asarida hunarning, hunarmandchilikning iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyatiga yuqori baho beradi.

Tejamkorlikda **vaqt** masalasi alohida e'tiborga molik tushunchadir. U inson ixtiyoridagi bebaho xazina. Shu sababli ham «**Kun qaytadi, ammo vaqt qaytmaydi**», degan naql bor, chunki vaqt o'lvovlidir. Undan dunyoni o'rganish, o'zgartirish, shaxsiy manfaat, el-yurt xizmati va mehnat samaradorligini oshirish borasidagi faoliyatlarda foydalanish mumkin. Shu

sababli ham u **qadrlidir**. Tarixiy voqealardan foydalanish iqtisodiy tarbiya berishning samaradorligini oshiradi va o'quvchilar ma'naviyatini yuksaltirishga yordam beradi.

Buyuk allomalarning iqtisodiy tarbiyaga oid fikrlaridan dars mashg'ulotlarida foydalanish o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini va iqtisodiy bilimni yanada oshishini ta'minlaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda, ularga iqtisodiy tarbiya berishda sodda tushunchalardan boshlash talab qilinadi. Iqtisodiyotda, dastavval, oila budjeti va iqtisodiy qudrati eng muhim asoslardan ekanligi hech kimga sir emas. Shu sababli oila budjeti to'g'risidagi ma'lumotlarni keltirib o'tamiz.

Oila budjeti. Inson shaxs sifatida shakllandimi, endi u oilaga va jamiyatga xoh iqtisodiy, xoh ma'naviy jihatdan bo'lsin foydasi tegishini o'ylab sa'y- harakatlarni qilishi lozim. Ayniqsa, shaxs oilali bo'lganida oila **iqtisodiy** qudratini mustahkamlash asosiy vazifa bo'lish kerak.

Oila budjetini mustahkamlash va sarflashda quyidagilarga e'tibor berib borish zarur:

- oilaviy ehtiyoj;
- oilaviy orzu-havas;
- oila ravnaqini o'ylash va shu kabilar.

Bunda oilaviy ehtiyoj zarur, uni bajarishga harakat qilish kerak.

Oilaviy orzu-havas, oila ravnaqi uchun imkoniyat darajasida harakat qilish lozim.

Demak, iqtisodiy tarbiyani oiladan boshlash talab qilinadi. Bu orqali oilasiga va qolaversa, shaxsan o'ziga tegishli bo'lgan imkoniyat hamda ne'matlarning qadr-qimmatiga etishga erishiladi. Bularning keyingi holatlarda ham, ya'ni o'rta umumta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'limdagi o'quv muassasalarida ham iqtisodiy tarbiyani amalga oshirishga ijobiy ta'siri katta bo'ladi.

Iqtisodiy mavzulardagi suhbat. Bahs-munozara, hamda treninglar, ishlab chiqarish ilg'orlari bilan uchrashuvlar. ishlab chiqarish korxonalariga uvushtiriluvchi ekskursiyalar, tadbirkorlik voki muayyan kasbiy faoliyatni tashkil etish ko'nikmalarini shakllantiruvchi ishchanlik o'yinlari. o'quvchilarning ishlab chiqarish borasidagi ijodiy qobiliyatlarini namoyish etishga imkon beruvchi ko'rik-tanlovlar, ularning iqtisodiy tafakkurini o'stiruvchi iqtisodiy yo'nalishdagi konferensiva, seminar va munozaralarni tashkil etish iqtisodiy tarbiya samaradorligini ta'minlaydi.

1.3. Boshlang'ich ta'lim jarayonini integratsiyalashning amaliyotdagi holati

Pedagogik izlanishlar shuni ko'rsatadiki, integratsion asosda fanlarni o'rgangan o'quvchilar predmetli o'rgatishning chiziqli kurslarini qisqa muddatda o'zlashtirmoqdalar. Tez o'qitish maqsad qilib olinmaganiga qaramasdan, undagi tabiat, mehnat, rasm, o'qish sohasidagi elementlar bu fanlarni tez o'rganishda umidli asos bo'lib xizmat qilmoqda. Pozitiv natijalar deb, dunyo haqidagi ilmiy tasavvurlarning zamonaviy darajasiga to'g'ri baho berish; o'quvchi oldida olamning ko'p o'lchovli dunyo manzarasining dinamikada, turli bog'lanishlarda yaratish, aylantirish; ko'rish gorizontlarini kengaytirish, o'zi uchun dunyoni qaytadan kashf etish, o'quvchi bilan muloqotdagi yangi metodik shakllarni izlash; turli mutaxassislar faoliyatlarini muammolarni hal etishda birlashtirish, o'quv faoliyatida toliqishning oldini olish, yangi sifatli pedagogik natija olish, ta'limning yangi falsafasi bo'lishi, pedagogik prosesining integrativ borlig'ini aks etishga aytiladi.

Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan darslardan foydalanish samaradorligini aniqlash maqsadida Oltinsoy tumanidagi 15-umumiy o'rta ta'lim maktabida tajriba-sinov ishlarini olib bordik. Ushbu maqsadda 22 soatlik dars mashg'ulotlarini kuzatdik. Tajriba-sinov ishlari davomida kuzatish, anketa so'rovlari, suhbat, pedagogik eksperiment kabi ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalandik. Anketa so'rovlarida jami 22 nafar boshlang'ich sinf o'qituvchilari ishtirok etgan bo'lsa, tajriba-sinov ishlarida 61 nafar 3-sinf o'quvchilari jalb qilindi. O'qituvchilar o'rtasida o'tkazilgan anketa-so'rovnomada quyidagi savollar bilan murojaat qildik:

1. Integratsiya tushunchasi qanday ma'noni anglatadi?
2. Ta'lim jarayonini integratsiyalashga munosabatingiz qanday?
3. Sizningcha, boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan fanlardan qaysilarini o'zaro bog'lab o'qitish mumkin?
4. Boshlang'ich sinfda qaysi sinfdan boshlab integratsiyalashgan darslarni tashkil etish mumkin? Integratsiyalashgan darslarning yutuqlari nimadan iborat?

5. 3-sinf matematika fanidan integrativ darslarni tashkil etish metodikasi bilan tanishmisiz?

6. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida iqtisodiy bilimlarni shallantirishda nimalarga e'tibor qaratish lozim deb o'ylaysiz?

So'rov natijalari tahlili ko'rsatishicha, boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan 14 nafari (63,6 %) integratsiya tushunchasining asl mohiyati haqida ma'lumotga egalar. 6 nafar (27,2 %) o'qituvchi umumiy holda fikr bildirdilar, qolgan 2 nafar (9 %) o'qituvchi esa hech qanday ma'lumotga ega emasliklarini ta'kidladilar.

O'qituvchilar bilan suhbat jarayonida ta'lim jarayonini integratsiyalash haqida qisqagina tushuntirish ishlarini olib bordik va umumiy ma'lumotlar berdik. Shundan so'ng boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan darslarni tashkil etishga o'qituvchilarning munosabatlarini bilishga qiziqdik. Anketa so'rovlarida ishtirok etgan 22 nafar o'qituvchidan 20 nafari (91 %) boshlang'ich ta'lim jarayonida darslarni bir-biriga bog'lab o'qitish ta'lim samaradorligini oshirishga va o'quvchilar dunyoqarashini rivojlantirishga yordam berishini ta'kidlab, uni amaliyotda keng qo'llash tarafdori ekanliklarini aytib o'tdilar. Faqat 2 nafar (9 %) o'qituvchigini integratsiyalashgan ta'limni qo'llash borasida muammolar va metodik imkoniyatlar kam ekanligini ta'kidlab o'tdilar.

Fanlararo aloqadorlik borasida ko'pchilik o'qituvchilar (12 nafar-54,5 %) o'qish va ona tili darslarini, matematika va mehnat darslarini, matematika va atrofimizdagi olam darslarini, (5 nafar – 22,7 %) o'qituvchilar tabiiy fanlar va o'qish darslarini integratsiyalashgan holda tashkil etish mumkinligini ko'rsatib o'tdilar.

So'rovda ishtirok etgan o'qituvchilarning barchasi boshlang'ich sinflardan boshlaboq integratsiyalashgan darslarni tashkil etish tarafdori ekanliklarini aytib o'tdilar va bunday darslar o'quvchilar tafakkurini o'tsirishga yordam berishini (8 nafar, 36,4 %), ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qilishini (4 nafar, 18 %), tabiat va jamiyat o'rtasidagi aloqadorlikni to'g'ri anglashga (4 nafar, 13,6 %), har bir fan ichidagi vertikal aloqadorlikni yo'lga qo'yishga xizmat qilishini (6 nafar, 27,2 %) ta'kidladilar.

So'rovda ishtirok etgan o'qituvchilar integratsion ta'limni yo'lga qo'yish uchun o'qituvchilarni metodik jihatdan tayyorlash (10 nafar, 45 %), metodik qo'llanmalar nashr ettirish (17 nafar, 77,3 %) va bu sohadagi tajribalarni ommalashtirish lozimligi haqidagi fikr-mulohazalarini bildirdilar.

Pedagogik faoliyat tajribasiga bog'liq holda o'qituvchining o'quv fanlariaro aloqadorlik vazifalarini tushunishi ham o'zgaradi. So'rovnoma natijalari asosida shu narsa ma'lum bo'ldiki, 15-20 yillik ish tajribasiga ega bo'lgan o'qituvchilar ta'lim jarayonida o'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlashga harakat qilishlarini namoyon qildilar. Shu bilan bir qatorda o'quv fanlariaro aloqadorlikdan foydalanishda o'qituvchilarning psixologik va nazariy tayyorgarliklarini kuchaytirish zarurligi aniqlandi.

So'rovnomadagi *“Boshlang'ich sinf o'quvchilarida iqtisodiy bilimlarni shakllantirishda nimalarga e'tibor qaratish lozim deb o'ylaysiz?”* savoliga o'qituvchilar kichik maktab yoshi davridanoq iqtisodiy bilimlarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlab, dastlabki iqtisodiy tushunchalar avvalombor, oila muhitida rivojlanib borishini aytishdi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining fikricha, o'quvchilarda iqtisodiy bilimlarni shakllantirishda matematika va mehnat, matematika va atrofimizdagi olam kabi fanlaridan integrativ darslarni samarali tashkil etish lozim.

Izlanishlarimiz asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining fanlararo aloqadorlikni anglashi va elementar iqtisodiy tushunchalarini bilish **mezonlarini** quyidagicha belgiladik:

- ijodiy fikrlaydi;
- mustaqil mushohada yurita oladi;
- o'quv fanlariaro aloqadorlik mohiyatini puxta o'zlashtirgan;
- muayyan mavzu haqida fikr yurita oladi va tasavvur qilish ko'nikmasini egallagan.

Tajriba-sinov ishlari uchun tanlab olingan guruhlarda o'quvchilarning dunyoqarashlari kengligi va fanlararo aloqadorlikni anglash darajalarini aniqlash

maqsadida ular bilan suhbat o'tkazdik. Suhbat davomida ularning javoblarini quyidagicha baholadik:

- *yuqori daraja*: ijodiy fikrlovchi, mustaqil mushohada yurituvchi, o'quv fanlariaro aloqadorlik mohiyatini puxta o'zlashtirgan, muayyan mavzu haqida fikr yuritish, uni tasavvur qilish ko'nikmasini egallagan o'quvchilar baholandi.

- *o'rta daraja*: mustaqil fikr yuritadigan, o'zlashtirgan bilimlarini amalda qo'llay oladigan, o'quv fanlariaro aloqadorlik mohiyatini anglagan va u haqida gapirib bera oladigan o'quvchilarga qo'yildi.

- *quyi daraja*: o'quv fanlariaro aloqadorlik mohiyatini tushungan, o'tilgan yangi mavzu haqida tasavvurga ega bo'lgan, biroq mazmunan o'xshash fanlar bilan bog'lay olmaydigan o'quvchilar baholandi.

O'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish samaradorligini aniqlash maqsadida, tajriba va nazorat sinflarida test sinovlari o'tkazildi. Ushbu test sinovlarida 3-sinflardan jami 61 nafar (tajriba sinfida – 31, nazorat sinfida – 30 nafar) boshlang'ich sinf o'quvchilari ishtirok etdilar.

Pedagogik tajriba-sinovni boshlash davrida o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish samaradorligidagi miqdor hamda sifat o'zgarishlari aniqlandi.

1.3.1-jadval

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining iqtisodiy tushunchalarni bilishi va fanlararo aloqadorlikni anglash darajalari

№	Savollar	Yuqori daraja		O'rta daraja		Quyi daraja	
		Tajriba sinfi (tajr.av) 3-A sinf	Nazorat sinfi (tajr.av) 3-B sinf	Tajriba sinfi (tajr.av) 3-A sinf	Nazorat sinfi (tajr.av) 3-B sinf	Tajriba sinfi (tajr.av) 3-A sinf	Nazorat sinfi (tajr.av) 3-B sinf
1.	Matematika fani nimani o'rgatadi?	7	6	13	13	11	11
2.	Matematika darslarida yana qaysi fanlarni o'rganishimiz mumkin?	4	4	11	12	16	14
3.	Iqtisodiy bilimlar deganda nimani tushunasiz?	5	4	12	13	14	13
4.	Insonda qanday moddiy ehtiyojlar mavjud?	3	3	10	9	17	18

Jadvalda berilgan ma'lumotlar tahliliga to'xtalib o'tamiz. Savolnomadagi 1-savolga o'quvchilar tomonidan berilgan javoblar deyarli bir xil bo'ldi, ya'ni bir-biriga yaqin javoblar keltirildi.

Savolnomadagi 2-savolga berilgan javoblarni baholashda uchta va undan ortiq fanlarni ayta olgan o'quvchilarga yuqori baho, ikkita fan aytgan o'quvchilarga o'rta baho, 1 ta aytgan yoki umuman aytmagan o'quvchilar javobi past baholangan.

Tajriba-sinov ishlarini o'tkazish davomida boshlang'ich sinflarda tashkil etilayotgan ona tili, o'qish, atrofimizdagi olam, tasviriy san'at, musiqa, matematika fanlaridan 12 soatlik darslarni kuzatdik. Ushbu darslarda boshlang'ich sinf o'qituvchilari ko'rgazmali qurollardan, zamonaviy pedagogik texnologiya elementlaridan va interaktiv metodlardan keng foydalandilar.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari savod o'rgatish davrida faqat alifbe va yozuv darslarini o'zaro bog'lab tashkil etdilar. Ba'zan matematika fani elementlari ham uchradi. Ammo musiqa, tasviriy san'at yoki tabiiy fanlarni o'qitishda integratsiya elementlari kuzatilmadi. Boshlang'ich sinflarda asosiy predmetlar – ona tili, o'qish, matematika va atrofimizdagi olam darslaridan tashqari barcha fanlarni mutaxassis o'qituvchilar (ba'zan nomutaxassislar ham) o'qitadilar. Ushbu holat fanlarni o'zaro bog'lab o'qitishga to'sqinlik qiladi.

Shuningdek, darslarni tashkil etishda audio vizual apparaturalardan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi ham ta'lim samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bundan tashqari ko'p yillik tajribaga ega bo'lgan o'qituvchilarning ayrimlarida ko'rgazmali qurollarga va ta'lim mazmuniga o'zgartirishlar kiritishga nisbatan qiziqish susayganligini ham kuzatdik.

Ta'lim sohasida o'zgartirishlar kiritish malakali o'qituvchilar tajribasini o'rganishda boshlang'ich sinf o'qituvchilarida axborot texnologiyalaridan foydalanish malakasining yetishmasligi ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Integratsiyalashgan ta'limni yo'lga qo'yish borasidagi izlanishlarimiz, ilmiy va metodik adabiyotlar tahlili hamda boshlang'ich sinf o'qituvchilari bilan o'tkazilgan so'rovlar hamda ular faoliyatlarini kuzatishimiz natijalariga ko'ra amaliyotda ushbu muammo hanuzgacha to'la o'rganilmaganligini va yechimini topmaganligini kuzatishimiz mumkin.

I bob bo'yicha xulosa

Ta'lim muassasalari rahbarlari ko'pincha integratsion kursning maqsad va vazifalarini aniqlashda kerakli o'quv dasturini tanlashda, o'qituvchilar malakasini oshirishda qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Shunday qilib, integratsiya ta'lim rivojlanishiga zamin yaratgan holda, har bir maktabda dolzarb muammo ham bo'lib kelmoqda. Bu integrativ yondashuv mohiyatini tushunmaslikdan kelib chiqmoqda. Ta'lim tizim tashkilotchilari zimmasiga bu masalani to'g'ri yechishda katta ma'suliyat tushmoqda. Ta'lim mazmunining insoniylashtirishda asosiy mexanizm deb integratsiyani anglash qadriyatni, ya'ni zamonaviy maktabning rivojlanishida ilg'or tendentsiyalar ahamiyatini aniqlashga imkon beradi. Bunda har bir o'qituvchi fanlararo integrative jarayon mazmun-mohiyatini bilishi lozim.

O'quvchilarga iqtisodiy bilim muhim ahamiyatga ega. Chunki, iqtisodiy tarbiya yosh avlodni jamiyat va davlat, qolaversa, oiladagi jarayonlarga ongli munosabatini shakllantirish bilan birgalikda, tejamkorlikni, isrofgarchilikka nafratni, ishbilarmonlikni, tadbirkorlikni, tashabbuskorlik, iqtisodiy hisob-kitob va shu kabi iqtisodiy jihatlarni qamrab oluvchi insoniy fazilatlarni yuksaltirishga xizmat qiluvchi tarbiyaviy asosdir. Demak, iqtisodiy tarbiya insonning ham ma'naviy jihatdan, ham moddiy jihatdan yuksaklik sari sa'y-harakatlarini ta'minlashdan iborat.

O'quvchilarga iqtisodiy bilimlarni berishda Markaziy Osiyo mutafakkirlarining iqtisodiy qarashlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

II BOB. 3-sinf matematika darslarida integrative yondashuv asosida o'quvchilarda iqtisodiy bilimlarni rivojlantirish samaradorligi

2.1. Boshlang'ich sinf darslarini integrativ yondashuv asosida tashkil etish metodikasi

Integratsiya - «butun» degan ma'noni bildiradi, demak, bu tafakkur o'sishi jarayonining turli qism va elementlarini bitta butunga birlashtirish bo'lib hisoblanadi. Integratsiya fanlarning mexanik birlashishi emas, bu sintez, yangi narsaning kelib chiqishi, kashfiyotdir. Alohida tizimlarning yaqinlashishi, bog'lanishi va yagona bir yangi narsaning yaratilishidir.

Bugungi kunda biror bir lug'atda integratsiyaning metodik jihatdan mazmuni haqida bironta so'zni uchratish mumkin emas. Lekin integratsiya so'zining ma'nosi hammamiz uchun yaxshi tanish I.Kololojvari, L.Sechenikovalar integratsiyani metodik xarakterini «Integrativ darslarni qanday tashkil etish mumkin?»¹ nomli maqolalarida quyidagicha tasniflaydilar: «...integratsiyalashgan darslarning imkoniyatlarini to'rt yil o'rganish natijasida bu metodikaning kelajagi katta ekanligiga ishonch hosil qildik. Unga ko'ra o'quvchilar ongida bizni o'rab turgan dunyo haqida yanada to'liq va atroflicha keng tasavvur hosil qilish imkoniyati tug'iladi. Bolalar o'z bilimlarini amaliyotda yanada faol qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar, chunki bunda bilimlarning tub mohiyati yanada keng ochib berish imkoniyati, olamni bir butunlikda tasavvur qilish imkoniyati mavjud. O'qituvchi fanga oid bilimni berishda uni boshqa fanlar ma'lumotlari bilan solishtirish asosida uni yanada boyitadi, to'ldiradi».

Maktabda o'qitiladigan barcha fanlarda integratsiyalashning ma'lum bir imkoniyatlari mavjud bo'lib, uni integratsiyalashgan holda tashkil etish bir qator shartlarga bog'liqdir. Shuning uchun pedagoglar va metodistlar yangi dasturni yaratishdan avval, ana shu holatlarni barchasini e'tiborga olishlari lozim. Buning uchun eng avvalo o'qituvchi sinfning tayyorgarlik darajasini, o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini, qiziqishlarini hisobga olishi lozim.

¹ Кололожвари И. Сеченикова Л. Как организовать интегрированный урок? (о методике интегрированием образования)//Народное образование. - 1996.

O'quv faoliyatidagi qiyinchiliklarning sabablaridan biri integratsiya metodidan foydalanish ham bo'lishi mumkin. O'quvchilarning bir fanni muvaffaqiyatli o'zlashtirishlarining sababi, boshqa bir fandan yaxshi bilimga ega bo'lishlari bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin. Misol uchun katta hajmdagi matnni savodli ko'chirib olish uchun uni tez va to'g'ri o'qiy olish malakasi talab qilinadi. Agar bunday imkoniyat haqida gapirmasdan turib, o'qituvchi o'rgatiladigan har bir fanni boshqasi bilan solishtirmasdan, taqqoslamasdan, uning ma'lumotlaridan foydalanmasdan o'rgatishi anchayin qiyin va zararli bo'lishi mumkinligini his qilishi zarur.

Axir biz dunyo yagona bir butun ekanligini his qilib borayapmiz, sababi bir mavzuni yoritish uchun boshqa bir sohalarga murojaat qilmasdan iloji yo'qligi kunday ravshan bo'lib bormoqda. Bunday hollarda taqqoslash, qarama-qarshi qo'yishdan foydalaniladiki, bu esa integratsiya hisoblanadi.

Boshlang'ich ta'limdagi o'qish darslarini ona tili, odobnoma, shuningdek, rasm, tabiatshunoslik, mehnat fanlari bilan bog'lab o'qitish uchun modulli dars texnologiyalariga amal qilmoq joiz. Chunki bunday darslar o'quvchilarni ijod qilishga, mustaqil fikrlashga o'rgatadi.

Hozirgi kunda integratsiyaning bir necha usullari qo'llaniladi. Ulardan biri bir nechta fanlarni bir fanga birlashtirish g'oyasidir. Bugungi kunda mazkur masalada ko'plab xorijiy mamlakatlar olimlari boshlang'ich maktablarining o'ziga xos xususiyatini integratsiyalash muammolarini tadqiq etmayotganliklarida ko'rish mumkin.

Ular ilgari surayotgan ayrim ta'limotlar mohiyatiga to'xtalamiz. Integrativ ta'limning bosh maqsadi bolani tabiat, jamiyat, fan, san'at bilan, bir so'z bilan aytganda dunyo bilan suhbatga tortish, mazkur suhbat mobaynida faqat odamlar suhbatlashadigan til bilangina emas, hayvonlar, o'simliklar tili bilan, rassomlar, musiqachilar, olimlar foydalanadigan tildan foydalanishga yo'naltirish g'oyasi, kichik maktab o'quvchisiga fikr doirasi keng bo'lgan muloqot san'atining boshlang'ich savodini egallashda yordam berish. Bu savod o'z ichiga odamlar bilan muloqotdan tortib (tengdoshlar, katta

yoshdagilar, kichik yoshdagilar) o‘z-o‘zi bilan muloqotdan to atrof-muhitdagi hodisalar bilan muloqotni kiritadi, integrativ ta’limning maqsadlaridan yana biri o‘zi yashayotgan olam haqida narsa va hodisalar orasidagi bog‘liqlik, o‘zaro yordam, moddiy va madaniyatning turli-tumanligi haqida keng va eng asosiysi, insonning ichki (ma’naviy) va (ijtimoiy) dunyosi haqida, olamda hukm suruvchi qonunlar (tabiiy, ilmiy, tarixiy, axloqiy) haqida tushuncha berish. Asosiy urg‘u faqat ma’lum bilimlarni egallashgagina emas, balki obrazli fikrlashni rivojlantirishga beriladi. Olamning umumiy ko‘rinishi tovushlar, obrazlar, ranglar orqali tanishtiriladi, bola esa ham dunyoni, ham o‘zini o‘rganuvchi, tekshiruvchi o‘rniga qo‘yadi.

Integrativ ta’lim oddiydan murakkabga, bilishdan - ilmga, tartibsizlikdan uyg‘unlikka, chanqoqlikdan mohirlikka va ijodga bo‘lgan harakatni taklif qiladi. Bola dunyo yaralishining «g‘ishtchalari» bilan tanishadi, olamning boshlanishiga, insonning yerda paydo bo‘lishiga murojaat qiladi. So‘zlarni, sonlar sirini, yashil barglar, qadimiy afsonalar sirlarini ochishga intiladi. U makon va zamon bo‘ylab sayohatga otlanadi. Shunday qilib, bola har kuni ochilishi kerak bo‘lgan olamning go‘zalligini va turli-tumanligini his qiladi.

Murakkab dunyoqarashlar ilmiy, badiiy g‘oyalar bola tushunishi uchun qulay, obrazli mavzularda o‘z aksini topgan, ular yil mundarijasini tuzishga imkon beradi. Bir tartibga solingan tizim bu integrativ ta’limning o‘ziga xos xususiyatidir. Bunday o‘yinlarga yondoshish 6-10 yoshdan boshlanadi. Bu xol ularni turli o‘yin orqali murakkab bilim orttirish, badiiy, axloqiy masalalarni hal qilishiga yordam beradi.

Integrativ ta’lim shaxsga moslangan yo‘nalishga ega faqatgina sinf yoki guruhga emas, har bir bolaga ahamiyat beriladigan qilib ishni tashkil etishni nazarda tutiladi. Bunda uning shaxsiy fazilatlari, qobiliyatlari alohida ko‘rsatiladi, uning qiziqishlari hisobga olinadi.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning qiziqish va qobiliyatlariga moslashish ularning badiiy faolligini rivojlantirishni taqozo qiladi. Bilim

olish, badiiy hayotiy masalalarni hal qilishda o'ziga xoslikni, uddaburonlikni, epchilikni rag'batlantirishni nazarda tutadi. Shu munosabat bilan bolalarning she'r va hikoyalar yozish, yangi raqs o'ylab topish, shirin taom pishirish, biror asbob yaratish, o'simliklardan shakllar yaratish kabi ishlar bilan rag'batlantirib borish taqozo etiladi.

Emotsional tomonlarni rivojlantirishga katta ahamiyat beriladi. Darslar bolalarda ko'rish va eshitish qobiliyatlarini (materiallar sifatini, materialini ushlab ko'rib ajrata bilish qobiliyati), sezish tuyg'ularini (hid va ta'mni ajrata olish qobiliyatlarini) rivojlantirishga yordam beradi.

Boshlang'ich ta'lim o'quv jarayonida foydalanilayotgan usul, uslub va shakllarning turli-tumanligi bilan ajralib turadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari natijasi o'laroq yangi o'quv rejaları va dasturlarga o'tish mobaynida jamiyat va atrof-muhit o'rtasidagi aloqalarni uyg'unlashtirish, atrof-muhitga jiddiy munosabatni o'rnatish va shakllantirish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi. Shaxsning tevarak atrofdagi voqea va hodisalarga nisbatan jiddiy munosabatlarining poydevori boshlang'ich sinflarda qo'yiladi. Shuning uchun iqtisodiy ta'limning natijasi maktab ta'limining birinchi bosqichiga bog'liq. Yangi psixologik - pedagogik tadqiqotlar kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining bilish faoliyatlari cheklanganligi haqida ilgarigi tushunchalarni ko'rib chiqishga imkon beradi. Bu boshlang'ich iqtisodiy ta'limning barcha tarkibiy qismlarini o'zgartirish va yangilashga asos yaratadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlariga javob beradigan va dars talablariga mos keladigan, maqsadni aniqlash bunday yangilanishning asosiy masalasidir. Boshlang'ich maktabda integratsiyani amalga oshiruvchi bo'g'in vazifasini o'qituvchining o'zi amalga oshiradi. U bolalarga matematika, o'qish, tabiat haqidagi boshlang'ich tushunchalarni va yana ko'pgina narsalarni o'rgatadi. O'qituvchi o'zining kuch va imkoniyatlari darajasida bu ishni amalga oshiradi. Boshlang'ich sinflarda har bir o'qituvchining dars berishini, alohida olingan integratsiyaning bir usuli deb hisoblasak ham bo'ladi.

Integratsiyani amalga oshirishning usullari yaxshi yoki yomon bo'lishi mumkin, muammoning mohiyati shundaki, usullarning biridan yuz o'girib, ikkinchisidan barcha darajalarida o'quvchilarning (psixologik va fiziologik) yosh xususiyatlarini hisobga oladigan integratsion choralar tuzishni kiritishidir. Muammoning bunday qo'yilishi integratsiyaning turli ta'lim pog'onalarida turli xususiyatlarga ega ekanligini ko'rsatadi. Boshlang'ich maktabda integratsiyani bir- biriga nisbatan yaqin fanlarni birlashtirish asosida ko'rish maqsadga muvofiq.

Integratsiya go'yoki bilim berishda zarur emasga o'xshaydi, biroq u insonning dunyoni kengroq tushunishi uchun bir yo'l bo'lib, u orqali o'quvchilar dunyoqarashi kengayadi: o'qish darslarini ona tili, odobnoma, shuningdek, rasm, tabiatshunoslik va mehnat fanlari bilan bog'lab o'qitish uchun modulli darsning qonuniyatlarini chuqur anglaydi, aloqadorlikni bilib oladi. O'quvchilarni ijod qilishga o'rgatish, izlanishga yo'naltirish, tasavvur, fantaziya hosil qilish, o'qitishning zamonaviy usullariga kiradi.

Integrativ darslarni tashkil qilish orqali o'quvchilar bilan munozara qilish, ularni fantaziya qilishga o'rgatish, guruhlararo musobaqalarni tashkil etish, savol- javoblarni uyushtirish mumkin. Bunday zamonaviy dars turlarini qo'llashdan asosiy maqsad o'quv jarayonida o'quvchilarni faollashtirish, o'quv materialini o'zlashtirishlarining yuqori darajasiga erishishdan iborat. Ana shunday texnologiya o'quvchilarda dunyoni o'zgacha tasavvur qilishga o'rgatadi, amaliyotni hayot bilan bog'lashga, nazariy qoidalarni so'zma-so'z yodlamaslikka, shaxs va jamiyat uyg'unligini anglashga, fikrlar rang-barangligiga erishishga, nostandart tafakkur qilishga, shuningdek, o'z-o'zini rivojlantirish yo'llarini tushunishga imkon yaratadi.

Integratsiyalashgan darslarni tashkil etish uchun avvalo qaysi darslar integratsiyalash uchun mos kelishini aniqlab olish kerak. Bunday darslarning asosi

– turli fanlar asosiy mavzulari mazmunining yaqinligi va mantiqiy aloqalarida ko'rinadi.

Savod o'rgatish darslari (o'qish va yozishga o'rgatish).

Integratsiyalangan darslar. Bunday integratsiyalangan ta'lim – bu sinfdan tashqari o'qish. Bu yerda yaxlit jarayon kechadi:

- a) kitob o'qish asbobi sifatida o'qish darslarida olgan o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish;
- b) matn ustida ishlash;
- c) suhbatdoshlar doirasini tanlash kabi kitoblarni tanlash.

Integratsiyalangan darslarga quyidagi fanlarning birikishini ko'rsatish mumkin: o'qish-rus tili, o'qish-tabiatshunoslik, o'qish-tasviriy san'at, o'qish- musiqa, tabiatshunoslik-matematika, tabiatshunoslik-mehnat ta'limi, matematika- mehnat ta'limi, matematika-jismoniy tarbiya.

Ilmiy adabiyotlar tahliliga ko'ra, integratsiyalashgan darslarni tashkil etishning quyidagi bosqichlari mavjud:

1-jadval

№	Bosqich nomlari	Amalga oshiriladigan vazifalar mazmuni
1.	Maqsadli bosqich.	O'qituvchi umumiy maqsadni qo'yadi. O'quvchilar o'qituvchi boshchiligida predmetlararo bog'liqliklarni tushunib yetishlari, turli predmetlardan kerakli bilimlarni tanlab olishlari kerak, bunda ular e'tiborlarini, fikrlarini faqat umumiy bilimlarni o'zlashtirishga emas balki, ko'chirish tahlil qilish shaxsning belgilari qobiliyat va qiziqishlarini rivojlantirishga qaratishlari kerak.
2.	Isbotlash bosqichida	O'qituvchi o'quvchilarni dunyoqarashini o'stiruvchi bilimlarga, turli predmetlar tushunchalarini umumlashtirishga rag'barlantiradi. O'quvchilar o'z irodalarini dunyoqarashini kengaytiruvchi bilimlarga qiziqishga yo'naltiradilar.
3.	Mazmunli bosqichi	O'qituvchi yangi o'quv materialini kiritadi, shu bilan birga integratsion dalillar, tushunchalar, muammolar majmui darajasidagi boshqa predmetlardan olingan tayanch bilimlarni jalb qiladi. O'quvchilar umumpredmetli tushuncha, muammolarni umumiy bilimlar darajasida o'zlashtiradilar.
4.	Vositalarni tanlash bosqichi	O'qituvchi bilimlarini umumlashtirishga yordam beruvchi turli predmetlarni, ko'rgazmali vositalarni, darsliklarni, jadvallarni, savolnomalarni, amaliy vazifalarni tanlaydi. Bu vositalar o'quvchilarga ko'chirish, umumlashtirish, biriktirish xarakteridagi integratsion
5.	Natijali bosqich	O'qituvchi ta'lim berish, rivojlantirish, tarbiyalash maqsadida integratsiyani amalga oshirish uchun pedagogik bilimlarni qo'llaydi. O'quvchi bilimlar tizimida, umumlashtirib ularni amalda qo'llaydi.

6.	Nazorat qilish bosqichi	O'qituvchi bir-biri bilan bog'langan predmetlarga o'quvchilarning tayyorgarligini nazorat qiladi, o'zlashtirishlarini baholaydi. O'quvchilar o'z bilimlarini baholashni, turli predmetlar bo'yicha o'z-o'zini ham, ularni birlashtirish ko'nikmalarini ham nazorat qiladilar.
----	-------------------------	---

Boshlang'ich ta'limda integrativ darslarni amalga oshirishga yordam beruvchi usul va vositalar quyidagilar:

2.1 -jadval

№	Usul va vositalar nomi
1.	Evristik suhbatlar.
2.	Umumiy suhbatlar.
3.	Ekskursiyalar.
4.	Ona tili, tabiatshunoslik darslarida kuzatishlar, badiiy asar materiallari asosida nutq o'stirish uchun yozilgan ijodiy ishlar.
5.	Ta'limning ko'rgazmali metodlari.
6.	Mustaqil ishlar.
7.	O'qish, matematika darslarida og'zaki rasm chizish.
8.	Imo-ishorali ko'rinishlar (pantomimalar).
9.	Tabiatshunoslik darslarida tabiat tasvirlarini ifodali o'qish.
10.	Ona tili darslarida tabiatshunoslikka oid diktantlar, matnlar yozish (shu sinfga tegishli orfogrammalarni takrorlagan holda).
11.	O'lkashunoslik asosida matematik masalalarni hal qilish, yechish va boshqalar.

Ta'limni tabaqalashtirishni rad etmaydigan, uni to'ldiradigan integratsiyani ta'lim tizimiga kiritish, jamiyatga yaxlit dunyoqarashga, o'zidagi bor bilimlarini mustaqil tartibga solish va turli muammolarni hal qilishga noan'anaviy yondoshish qobiliyatiga ega bo'lgan bilimdon yoshlarni tarbiyalab, kamolga yetkazishda an'anaviy predmetlarga bo'lib o'qitishga nisbatan ko'proq yordam beradi.

Matematika fanini o'qitishda ham iqtisodiy tarbiyani amalga oshirish mumkin. Xususan, boshlang'ich sinf matematika darsligidagi: «Hajmlarni o'lchash» mavzusidagi 883-masala sharti bilan tanishamiz. O'quvchilar bo'yi 40 metr, eni bo'yidan 10 metr qisqa maydonda bog' barpo etishdi. 1 sotix yerga 25 dona olma daraxti ekilishi belgilandi. 1 dona

ko'chatning narxi 1200 so'm. Savol: Bog' maydonining yuzini toping. Bog' atrofini qanday uzunlikdagi devor bilan o'rash kerak? Hamda bog' yaratishga qancha ko'chat va pul kerak. Mazkur masalani yechishda o'quvchidan fazoviy tasavvur, matematik amallarni bajarishga doir hamda harajatlarni hisobini chiqarishda iqtisodiy bilim talab qilinadi. Bu holatda o'quvchi masalaning javobini topish davomida, ijodiy fikrlashga harakat qiladi, sinfdoshlari bilan hamkorlikda ishlaydi.

2.2. Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan darslarni takomillashtirish xususiyatlari va tamoyillari

Umumiy ta'lim mazmuni o'quvchilarni har tomonlama ruhiy rivojlanishga, ularda turli xil tafakkurni shakllarini rivojlantirishga qaratilgan. Har bir o'quv predmetini o'rganish bolaning materialni anglash jarayonini, uni eslab qolishni, ta'sirchanlikni faollashtiruvchi, tafakkurni, nutq va tasavvurni rivojlantiruvchi ruhiy diqqatni yaratishga imkon beradi. Ayniqsa, bilish jarayonida bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan tafakkurning turlarini rivojlantirish juda muhimdir.

O'quv predmeti mazmunini tuzish pedagog amaliyot shu fanning asosiy kategoriya, tushunchalarining rivojlanish mantiqini hisobga oladi. Shu bilan birga, o'qituvchi va psixologlar o'quvchilar tomonidan materialni o'zlashtirishning yosh xususiyatlarini hisobga oladilar. San'at sohasidagi umumiy o'rta ta'lim mazmuni o'z ichiga g'oyaviy tomoni va to'kis badiiy shakli birligini hosil qiluvchi asarlarni o'z ichiga oladi. Badiiy jihatdan bo'sh, g'oyaviy jihatdan haqiqatga to'g'ri kelmaydigan asarlar bolalarning ruhiyatiga ta'sir qila olmaydi, tasavvur va tafakkurni rivojlantirmaydi, go'zallik va badbasharalik to'g'risida tasavvurni shakllantira olmaydi. Bolalar bilan ishlashda san'at asarlarining chin badiiyligini hisobga olish, shakl va mazmunning birligi, ma'naviyat va haqchilik prinsiplarini amalga oshirishda muhimdir.

Umumiy o'rta ta'lim kelajakda bolalarga xohlagan fanni egallash imkonini beruvchi bilimlar asosini yaratadi. O'quv predmeti fanlarning mustahkam asosiga ega, zamonaviy ilmiy ma'lumotlarni tushunishga yetaklaydi, fikrlash qobiliyatini

rivojlantirishga olib keladi. Umumiy o'rtta maktab uchun faqat hozirgi kunda ochilgan narsalar emas balki, avvalombor, fanning asosini, nazariy o'rnini tashkil etuvchi narsalar ham zarur.

O'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlashga yo'naltirilgan o'quv faoliyati o'quvchilar uchun bir qadar murakkablik kasb etadi. Bunda boshqa o'quv fanlari bo'yicha dastlabki uy vazifalari, darsda bir darslik materiallari asosida takrorlash daqiqalari, sxematik ko'rgazmalilikdan foydalanish kabilarga ahamiyat beriladi. O'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlash asosida o'quv materiallarini o'zlashtirishga erishish o'quv fanlariaro aloqadorlikni maqsadga muvofiq tarzda ta'minlash imkonini beradi.

O'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlash asosida uy vazifasini bajarishga ham umumiy talablar qo'yiladi. Bunday mustaqil, individual mashg'ulotlar ilmiylik va tushunarlik kabi yo'nalishlarga ega bo'lishi, ta'lim mazmunining hayotiyliigi, amaliyot bilan bog'liqligini ta'minlash, o'quvchilarning idrok etish faoliyatlarini jadallashtirishi kerak. O'quv fanlariaro aloqadorlikka tayangan holda ilg'or pedagogik texnologiyalar, muammoli masalalar yechish, kitob bilan mustaqil ishlash, ko'rgazmalilik kabi o'qitishning turli shakllaridan keng foydalanishlari lozim. O'quv fanlariaro aloqadorlik asosida ochib beriladigan o'quv materiali mazmuni va uni o'quvchilarga taqdim etish metodikasiga alohida yondashish talab etiladi. O'quv fanlariaro aloqadorlik asosida tashkil etilgan dars jarayonida o'qituvchilar quyidagilarga e'tibor berishlari lozim:

- fanlararo aloqadorlik asosida tashkil etiladigan har bir darsga mujassam yondashish. Bunda ta'limning o'qitish, rivojlantirish, tarbiyalash kabi maqsadlariga erishish;
- voqea-hodisalar, bilim va tushunchalarni aralash fanlar dasturi asosida o'quvchilarga o'rgatishga erishish;
- darsda o'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlashga yo'naltirilgan o'quv-metodik majmualardan foydalanish;

- mujassamlashtirilgan topshiriqlar yordamida yangi mavzuni o‘zlashtirish va o‘quvchilarning fanlararo aloqadorlik asosida egallagan bilimlaridan unumli foydalanish ko‘nikmasini tarkib toptirish;

- o‘quv fanlariaro aloqadorlikni mujassam tarzda ta‘minlash asosida darslarning sermahsulligiga erishish, bilim, ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish, o‘quvchining bilim olish motivlari va shaxsiy sifatlarini tarkib toptirish.

O‘quv fanlariaro aloqadorlikni ta‘minlagan holda boshlang‘ich sinf o‘quv fanlaridan egallagan bilimlar quyidagi hollarda samarali rivojlanadi:

1. O‘qituvchining darsga tayyorgarligi, aralash fanlar bo‘yicha o‘quv dasturlarini yaxshi o‘zlashtirganligi va o‘quv mavzularining o‘zaro aloqadorligini anglab yetilgan bo‘lsa;

2. Ushbu faoliyat o‘qituvchi shaxsiy rejasining tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘la olsa;

3. Guruhlar bo‘yicha alohida o‘quv fanlari mavzulari o‘zaro bog‘liqligi umumiy chizmasini va tarmoq grafigi o‘qituvchi tomonidan to‘g‘ri tayyorlansa..

Boshlang‘ich sinf o‘quv fanlari mazmunida g‘oyaviy, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma‘naviy-axloqiy, estetik, ekologik, g‘oyaviy-badiiy xususiyatdagi fanlararo aloqadorlik muammolari katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. O‘quv fani va o‘quv faoliyati o‘qitish jarayoni tizimi obyekt sifatida umumiy birlikdan iborat bo‘lgani sababli o‘quv fanlariaro aloqadorlikni aniqlashning didaktik asosi sifatida belgilanadi. O‘quv fanlari va o‘quvchi o‘quv faoliyatining tarkibiy tuzilishi va uning qismlari ta‘lim jarayonida o‘quv fanlariaro aloqadorlikning manbai bo‘lib xizmat qiladi. O‘quv fanlari mazmuni va o‘quvchilar faoliyatida bilimlarning asosiy turlarini qiyoslash asosida ularning o‘xshash jihatlari aniqlanadi. Shuning uchun ta‘lim jarayonida o‘quv fanlariaro aloqadorlik quyidagi yo‘nalishlarda ta‘minlanishi mumkin:

1. O‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashning shakllanishi uchun zarur bo‘lgan aralash tipdagi ilmiy dalillar, nazariy qoidalar, qonuniyatlar, g‘oyalarga tayanish orqali bilim va tushunchalar tizimini boyitish.

2. Aralash o‘quv fanlari uchun umumiy bo‘lgan bilim, ko‘nikma,

malakalarni va birinchi navbatda o'quv fanlari o'rtasidagi g'oyaviy bog'liqlikni o'zlashtirish hamda murakkab metodlarga asoslanadigan elementar o'quv ko'nikmalarini shakllantirish..

3. Umumlashtirilgan o'quv materiallari asosida o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma, malakalarni to'g'ri qo'llay olishga nisbatan munosabatni shakllantirish, bunda turkumlararo aloqadorlikni anglash va o'quv fanlarini mukammal bilish alohida ahamiyatga ega.

4. Fan asoslarini amaliyotda mujassamlashtirgan holda qo'llashda mehnat ko'nikmalarini rivojlantirish.

O'quv jarayonida integratsiyalangan ta'limdan foydalanishga katta ahamiyat berilyapti. Integratsiyalangan darslarning tuzilishi o'rganishning barcha bosqichlarida o'rganilayotgan materiallarning aniqligini va izchilligini, puxta o'rganilganligini va o'zaro mantiqiy aloqalarini talab qiladi. Bunga dasturdagi o'quv materialining ixcham va yig'iq ekanligi, undan tashqari o'quv materialini o'rganishning tashkil etishning ba'zi zamonaviy usullarini kiritish orqali erishish mumkin. Masalan: 1-va 2-sinfdagi «Atrofimizdagi olam» kursining barcha mavzulari bir-biri bilan chambarchas bog'liq. 3- va 4- sinfdagi «Tabiatshunoslik» darslari «Atrofimizdagi olam» kursini davom ettiradi. Uning dasturiga tabiat va insonlar mehnatidagi mavsumiy o'zgarishlarni kuzatish kiritilgan. O'quvchilar tomonidan atrof olamni o'rganish, o'qish, nutq o'tsirish, matematika, mehnat ta'limi darslarida davom etadi. Shunday ekan, «Atrofimizdagi olam» kursi predmetlararo aloqalar o'qituvchiga barcha o'qitilayotgan darslarda atrof olam haqidagi tushunchalarni shakllantirish bo'yicha ish olib borishga imkon beradi. Boshlang'ich maktabdagi har bir predmet bu integratsiyalangan kurs, mazmun jihatdan ular tabiiy-matematik sikl fanlari bilan uzviy bog'liq, bu kichik maktab o'quvchilari uchun tushunarli bo'lgan atrof-muhit haqidagi bilimlarni o'zlashtirishni ta'minlaydi. Bu yoshdagi bolalarda tabiatni o'rganishga bo'lgan faqat emotsional joziba emas, bilim olish motivlari bilan bog'liq. O'quvchilarning bu xususiyatini hisobga olib, qiziqishlarini quvvatlash uchun bilim olishga bo'lgan ehtiyojlarini yangi mazmun bilan to'ldirib turish kerak.

Bu o'quvchilarga hayotdagi o'zaro aloqalarni ochib berishga hamda tabiatdagi turli-tumanliksiz inson yashay olmasligini tushunib yetishga yordam beradi.

Bu holatda nutq o'stirish erkin sharoitda, hozir o'qilayotgan obyektlarga bo'lgan jonli qiziqish asosida o'tadi.

Tabiatshunoslik, o'qish, husnixat va matematika nutq o'tsirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

I. G. Petsalotsi ta'kidlaganidek «...aql notinch sezgili idrok qilishdan aniq tushunchalarga ko'tariladigan» manbaidir. Bu tushunchalarni anglash esa nutq san'ati bilan birga yuradi. Erkin tabiat obrazlari bolada mantiq bilan birga ta'sirchanlikni ham rivojlantiradi.

Har bir darsda nutq o'stirish masalalari hal qilinadi, bunda o'rganilayotgan materialning o'ziga xosligi va nutq o'stirish masalasini tanlashning maqsadga muvofiqligi hisobga olinadi. O'quvchilar bunday darslarni juda yaxshi ko'radilar. Ular ko'p yangi, kerakli tushunchalar beradi, tasavvurlarini tartibga soladi, o'quvchilar boshqa darslarda olgan bilimlaridan foydalanishlar zarur bo'lgan holatlarni yaratadi. Bunday holatda bolalar o'rganilayotgan materialni yaxshiroq o'zlashtiradilar, bilimlar tizim holiga keladi va o'quvchilar uchun juda zarur bo'lib qoladi.

Integratsiyalashgan darslar o'quvchilar uchun tushunarli va olingan bilimlarni yangi o'quv sharoitida ishlata bilish ko'nikmasini shakllantirishga yordam beradi.

Integratsiya negizida o'quvchilarda fikrlash qobilyatining har xil tiplarini shakllantirish, bu esa bilim (anglash) jarayoni bilan chambarchas bog'liqdir.

- tabiatda mavjud bulgan obyektlar orqali o'quvchilarning shaxsiyatini shakllantirish;

- «tabiat –inson» sistemasida aniq bilimlarga ega bo'lishi uchun fikrlash qobilyatini shakllantirish;

- materiallarni anglab yetish va didaktik adaptatsiya shakllantirish uchun o'rganuvchi materialni bilimning har xil tarmoqlaridan olish;

- o'quvchilarda sistemalashgan fikrlash qobiliyatini shakllantirish uchun o'rganuvchi materialni bilimning har xil tarmoqlaridan olish uchun dunyoning zamonaviy ilmiy kontekstidan foydalanish;

- tabiatning obyektlari va ko'rinishlarini, jarayonlarining, qonunlarini, jamiyatning rivojlanish qonunlarini iqtisodiyot gumanitik va demokratik bilimlarni shakllantirish;

- bilim, ko'nikma, malaka sistemasini ishlab chiqish;

- maktab ta'lim kurslaridagi integratsiyaning ma'nosi, keng miqdordagi fikrlar va faktlar majmuasi, bir- biriga yaqin fanlarning birlashuvi;

- maktab o'quvchilarida har xil tipdagi fikrlash qobiliyatini shakllantirish, buning uchun ruhiy mashqlardan foydalanish, materialni tez o'zlashtirishiga yordam beradi, uni eslab qolish va emotsional anglash qobiliyatini shakllantiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida iqtisodiy bilimlarni rivjlantirishda albatta, o'qitish tamoyillariga rioya qilinishi shart.

Didaktik tamoyillar ta'lim jarayoni qonuniyatlari, mazmuni va metodlarini belgilab beruvchi o'qitish prinsiplaridir. M.N.Skatkinning ta'kidlashicha, "o'qitish tamoyili o'qituvchi va o'quvchining bir maqsadga yo'naltirilgan hamkorligi hamda shu hamkorlik natijasida ko'zlangan maqsadga erishishi"dir. O'qituvchining kasb mahorati, o'quvchining o'rganuvchan faoliyatini bir qolipga solib, maqsadga erishishini ta'minlaydigan qoidalar ta'lim jarayonida didaktik tamoyillar mohiyatini tashkil etadi.

Boshlang'ich sinflarda matematik tushunchalarni ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o'quv fanlari tarkibiga singdirish natijasida ta'lim jarayonining sifati va samaradorligi ta'minlanadi. Boshlang'ich sinflarda o'quv fanlariaro aloqadorliklarni ta'minlash uchun pedagogikada ma'lum bo'lgan, quyidagi asosiy didaktik tamoyillarga tayaniladi:

1. O'qitishning ilmiyligi;
2. Nazariya va amaliyotning birligi;
3. O'qitish va tarbiyalashning muntazamliligi;

4. O'qitishda tarixiylik tamoyili;
5. O'quv jarayonini jadallashtirish tamoyili;

Ushbu tamoyillarni o'quv fanlararo aloqadorlikni ta'minlashda quyidagi tarzda tatbiq etishga harakat qildik:

Ilmiylik tamoyili - bu faqat ta'lim mazmunida yangi ilmiy yutuqlarni aks ettirish bilan chegaralanmasdan, balki ilmiylik bizning fikrimizcha, u yoki bu fanning asosiy qismini tashkil etishi, o'quv fanining xususiyatlarini hisobga olib, o'quvchilarni bilish faoliyatini rivojlantirish lozim. Dars jarayonida bilim o'rganish faoliyat natijasi sifatida emas, balki faoliyat jarayoni sifatida e'tirof etilishi kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o'quv fanlaridan egallagan bilimlarini fanlararo aloqadorlik asosida o'z tajribasida sinab ko'radi va uni qo'llash usullarini topadi. Shu asosda o'qitish va tarbiyalashning ilmiyligiga erishiladi.

Nazariya va amaliyotning birligi tamoyili. Boshlang'ich sinflarda ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o'quv fanlari asosida o'rganiladigan bilimlar o'quvchilar ongiga ikki tomonlama singdiriladi: nazariy hamda amaliy. Demak, o'quvchilar fanlararo aloqadorlik asosida bilimlarning nazariy hamda amaliy tomonlarini egallab olishlari kerak. Mana shundagina nazariya va amaliyotning birligi tamoyili ta'minlanadi. Amaliy yo'nalganlik bilimning funksional tomonini ochib berishni ko'zda tutadi, bu o'quvchilarda dunyoni yaxlit tizimli tushunish ko'nikmasini tarkib toptiradi. Amaliy topshiriq pedagogik jihatdan muhim afzallikka ega, bu esa boshlang'ich sinflarda ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o'quv fanlarining o'zaro aloqadorligi asosida o'qitish jarayonida ulardan muntazam foydalanish samaradorligini oshiradi. Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu afzalliklarni o'quvchilarning amaliy faoliyatlarini o'qitish jarayoniga rasman kiritish yo'li bilan amalga oshirib bo'lmaydi. Ular ma'lum talablarni bajargandagina o'quv predmetlarining mazmuni turli fanlarni o'qitish sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ma'lumki, dars jarayonida amaliy mashg'ulotlar juda ko'p vaqtni talab qiladi. Shuning uchun ularni o'tkazishda faqatgina erishilayotgan afzalliklar, sarflanayotgan vaqt yetarlicha foyda berganida va amaliy mashg'ulotlar, nazariy materiallarni o'zlashtirish jadallashtirish holdagina o'zini oqlaydi.

Ta'lim-tarbiyaning muntazamliligi tamoyili o'quvchilarda vatanparvarlik, milliy mafkura va milliy g'ururga sadoqat kabi ko'plab tuyg'ularni qaror toptirishdan iborat. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da yosh avlod iymone'tiqodini mustahkamlash, ularni o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan barkamol inson qilib tarbiyalash, tafakkurida o'zligini unutmaslik, ota-bobolarimizning muqaddas qadriyatlarini asrab-avaylash va hurmat qilishni qaror toptirish, ularni zamon taraqqiyoti bilan barobar qadam tashlaydigan komil insonlar bo'lib yetishishiga ta'lim va tarbiyaning birligini ta'minlash ta'kidlangan. Azaldan mamlakatimizda ta'lim-tarbiya jarayoniga jiddiy e'tibor berib kelinadi va bugungi kunda mazkur e'tibor yanada kuchaymoqda.

O'.Q.Tolipov o'z tadqiqotlarida tarbiya jarayonining mohiyati, qonuniyatlari hamda o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilib, mavjud nazariy va amaliy g'oyalarga, pedagogik bilimlarga tayangan holda tarbiya texnologiyasining tarkibiy qismlarini belgilab bergan. Uning fikricha, o'quvchi ta'lim jarayoniga yetakchilik qilsada, tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchi sifatida asosiy mavqeni egallay olmaydi. Chunki unda xarakter, dunyoqarash yetarlicha shakllanmagan, u tarbiyachi-o'qituvchining yordamiga muhtoj. Darhaqiqat, boshlang'ich sinf o'quvchilarini barkamol inson qilib tarbiyalash, ularning dunyoqarashini shakllantirish, ijobiy fazilatlarni ularda tarkib toptirishda ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o'quv fanlarining o'rni beqiyos. Ushbu o'quv fanlari doirasida o'rganilayotgan, tarbiyaviy ahamiyat kasb etuvchi har bir mavzu, albatta, matematik tushunchalarsiz o'quvchilar ongiga singdirilmaydi. Matematik tushunchalar yordamida voqea-hodisalar o'quvchilarning ongiga o'rinish qoladi.

O'qitishda tarixiylik tamoyili o'rganilayotgan o'quv materialini bayon qilishda tarixiy materiallardan foydalanish asosida darsni tashkil etishni nazarda tutadi. Boshlang'ich ta'lim mazmunini tanlashda tarixiylik tamoyiliga amal qilinsa, o'rganilayotgan o'quv materialini boyitiladi, o'quvchilar tomonidan yangi mavzuning puxta o'zlashtirilishiga erishiladi. Fanlararo aloqadorlik asosida mazmun jihatidan o'xshash mavzularning ketma-ketlikda bayon etish imkoniyati tug'iladi. Natijada bilimlarni yaxlit bir butunlikda o'zlashtirish ehtiyoji ta'minlanadi. O'qitishda tarixiylik tamoyili didaktshunos olimlar tomonidan XX

asrning 50-yillarida umumdidaktik tamoyillar tasnifiga kiritilgan. Har bir millat o'z o'tmishi, milliy xususiyatlaridan kelib chiqib, yosh avlodga ta'lim-tarbiya beradi.

Didaktikada dars jarayonida yangi mavzuni tez va sifatli o'zlashtirish taqozo etiladi. Zero, *o'quv jarayonini jadallashtirish tamoyili* qisqa va mazmunli dars o'tishga borib taqaladigan didaktik hodisadir. Fanlararo aloqadorlik asosida har bir dars jarayonida bir necha darslarning o'xshash mavzularidan misollar keltirib, foydalanish ko'p vaqtni talab qiladi. Biroq ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o'quv predmetidan dars beradigan o'qituvchi bir soatlik dars jarayonida o'rganilayotgan mavzuni nihoyatda vaqtni tejagan holda, tez va mazmunli tarzda o'quvchilar ongiga etkaza olishi, ular xotirasida o'tilgan mavzuning asosiy komponentlarini saqlanib qolinishiga erishishi lozim. Bunda o'quvchining darsga nisbatan qiziqishi muhim ahamiyatga ega. O'quvchining bilishga moyilligi, intilishi, havasi, ehtiyoji didaktikada bir so'z bilan "motivatsiya" deb ataladi. O'.Yo'ldoshev motivatsiyani didaktik tamoyil sifatida talqin etib, shunday deydi: "Motivatsiya-o'quv bilish faoliyatida o'z-o'zidan hosil bo'lmaydi, uni vujudga keltirish o'qituvchidan ulkan mahorat talab etadi. Motivatsiya-o'quv jarayonining eng muhim unsuri va ayni vaqtda dars jarayonini jadallashtirishda yetakchi omil hisoblanadi". Motivatsiya o'quvchining bir maqsad sari intilishini mustahkamlaydi, maqsadga erishish uchun izchil va dadil harakatlanishini ta'minlaydi. Dars jarayonida hosil qilinadigan motivatsiya murakkab pedagogik hodisa bo'lib, u o'quvchilarning xulqi, intilishlari, qiziqish va mayllariga bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o'quv fanlarining o'rganilishida ushbu tamoyildan foydalanish maqsadga muvofiqdir. O'qituvchi dars jarayonida fanlararo aloqadorlikdan foydalangan holda motivatsiyaning quyidagi uchta - uyg'otuvchi, yo'naltiruvchi, fikr uyg'otuvchi vazifalaridan foydalanadi. Bunda matematik tushunchalarning qo'llanilishi o'quvchilarda o'rganilayotgan mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otadi, fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va o'rganilgan mavzuni xotirada saqlanishiga imkoniyat yaratadi.

Matematik tushunchalar asosida ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o'quv fanlarini bir-biri bilan o'zaro bog'lash, ularning mantiqiy aloqadorligi va

mazmundorligi taqdim etilayotgan o'quv mashg'ulotining mohiyatini tushunib olishga yordam beradi.

Boshqa o'quv fanlaridan o'zlashtirilgan va qo'llaniladigan atamalar, o'quv materiallarining xususiyatlari, ta'lim vositalari, o'quv materialini tanlash qonuniyatlari, o'quv fanlariaro aloqadorlik xususiyatlari belgilab berilishi kerak. O'quvchilar topshiriqlarni bajarish davomida nazariy bilimlarni qo'llay olishlari kerak. O'quv materiallari hajmini belgilashda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish zarur. Bu albatta, o'quvchilarning idrok etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Jismoniy va aqliy mehnat o'quv materiallarini idrok etish jarayonining rag'batlantiruvchi omili ekanligini hisobga olishi lozim. Shuning uchun o'quv jarayonini o'quvchilarning yoshi va fiziologik imkoniyatlari hisobga olingan holda tashkil etiladi. Ularda o'quv materialiga nisbatan qiziqish uyg'otish va diqqatini o'zlashtirishga jalb etish darkor. O'quvchilarning idrok etish imkoniyatlari muntazam murakkablashib, o'quv va amaliy masalalarni yechish jarayonida kengayadi. Ushbu murakkablashish ularning aqliy va jismoniy rivojlanishlarida muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o'quv fanlarini o'rganishda berilayotgan va taqdim etilayotgan o'quv materialining mazmuni o'quvchilarning tushunishlari uchun obyektiv borliq manzarasi asosida haqqoniy tarzda aks ettirilishi lozim. O'quvchilar o'rganilayotgan o'quv fani bo'yicha eng yangi ma'lumotlarga ega bo'lishlari kerak. O'quvchilar amaliy faoliyatiga dastlabki topshiriqlarni bajarish uchun aniq ma'lumotlarni talab qiladigan o'quv materiallarini kiritish lozim.

Ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o'quv fanlari matematik tushunchalarsiz o'zaro aloqadorlik xususiyatini yo'qotadi. O'quvchilarda matematik tushunchalar asosida muayyan mavzu bo'yicha tasavvur hosil qilinadi. Bu tasavvur nazariy va amaliy mashg'ulotlar yordamida yanada mustahkamlanadi.

Didaktik tamoyillar asosida o'quv mashg'ulotlarini tashkil qilish uchun quyidagi vositalar talab qilinadi: o'quv anjomlari, texnik vositalar, modellar. Shu bilan bir qatorda mahalliy omillarni hisobga olish, foydalaniladigan vositalarni tanlash ularning xususiyatiga muayyan ta'sir ko'rsatishini ta'kidlash kerak. Masalan, o'quv fanlariaro aloqadorlik qonuniyatlariga binoan amaliy

mashg'ulotlar ishlab chiqarish bilan bog'liq real vaziyatlardan foydalanish asosida tashkil etilishi ham mumkin.

Ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o'quv fanlari bo'yicha darslarda o'quv fanlariaro aloqadorlik matematika asosida amalga oshiriladi. O'qitishning fanlararo aloqadorlikka asoslangan tizimi o'quvchilarni kasbga yo'naltirish bilan uzviy bog'liqdir. O'qitish jarayonida ushbu tamoyillarni amalga oshirish uchun faqatgina nazariy bilimlarning muayyan hajminigina emas, balki uning ilg'or sohalari, asosiy kasblar, o'qitish texnologiyasini rivojlantirish tendentsiyalari, iqtisod va mehnatni mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasi bilan mos ravishda tashkil etish asoslari haqidagi bilimlarni ham taqdim etish zarurdir. O'quvchilarga turli kasblar haqidagi ma'lumotlarni birgina fan o'qituvchisi yetkazib bera olmaydi. Bu muammoni hal etishda barcha o'quv fanlarining o'qituvchilari birgalikda fanlararo aloqadorlikni ta'minlagan holdagina muvaffaqiyatga erishish mumkin.

O'quv fanlariaro aloqadorlikning barcha imkoniyatlaridan didaktik tamoyillarga tayangan holda amaliy mashg'ulotlarni maqsadga muvofiq tarzda tashkil etish o'quvchilarning nazariy-amaliy faoliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Umuman olganda didaktik tamoyillar amaliy topshiriqlarini bajarish, o'rganilayotgan nazariy hodisani to'liq tasavvur qilish imkonini beradi. Bu didaktik tamoyillar o'quv predmeti mazmuni haqida ko'rgazmali tasavvurni shakllantirishda asos hisoblanadi.

O'quv fanlariaro aloqadorlik asosida o'tiladigan darslarga qo'yidagi didaktik talablar qo'yiladi:

1. Fanlararo aloqadorlik asosida o'rganilayotgan darsda yangi mavzuni o'zlashtirish uchun boshqa fanlardan olgan bilimlarni jalb etilishi hamda ularni tatbiq qilish malakalariga ega bo'lish.

2. Fanlararo aloqadorlik asosida o'rganilayotgan darsda boshqa fanlardan bilimlarni qo'llash bo'yicha o'quvchilarning bilish faoliyatlari samaradorligini ta'minlash. O'qituvchi dars o'tayotganda boshqa o'quv fanining materialini takrorlamasligi lozim. Fanlararo aloqadorlikni ta'minlashdan ko'zlangan maqsad o'quvchilarda yangi savollar va masalalarni yechishda turli fanlardan olgan

bilimlarini mustaqil qo'llash ko'nikmasini hosil qilishdan iborat bo'ladi. Buning uchun dars boshida yoki yangi materialni tushuntirish jarayonida boshqa o'quv fanlari mazmuniga kiritilgan bilimlarni aniqlab beruvchi takrorlash suhbatlari o'tkaziladi, muammoli vaziyatlar yaratiladi, bunda bir-biriga yaqin fanlardan o'zlashtirilgan bilimlarni qo'llash talab etiladi; o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash uchun esa muntazam uy vazifalari beriladi; guruhda jamoali o'quv ishlari bilan birga yakka holda topshiriqlar (qiziqishi yuzasidan, tanlab olish, majburiy) berilishi ta'minlanadi.

3. Dars jarayonida fanlararo aloqadorlikni ta'minlash asosida o'rganilayotgan hodisalarning mohiyati, sabab-oqibatli bog'liqliklarini tushuntirishga qaratilgan bo'lishi. Masalan, o'qish darslarida qish fasliga doir she'r yoki matnni o'qishdan oldin o'qituvchi mavzuni tabiatshunoslik bilan bog'liqligi haqida "tabiatshunoslik darsida biz qish faslida bo'ladigan tabiatdagi o'zgarishlarni o'rgandik. Ushbu she'r (matn)da ham xuddi shu holat tasvirlangan" degan fikr bilangina cheklansa, unda o'quv fanlari o'rtasidagi bunday aloqadorlik faqat tashqi xususiyatga ega bo'ladi, tasavvurlar va reproduktiv harakatlar darajasida qoladi. O'quv fanlariaro bilim va tushunchalarni tizimlashtirish uchun alohida o'quv mavzulari bo'yicha umumlashtiruvchi jadvallarni tuzish maqsadga muvofiqdir (yoki fanlararo turli mavzudagi o'quv muammolari bo'yicha).

4. Fanlararo aloqadorlik asosida o'rganilayotgan dars mavzulari turli fanlardan bilimlarning bog'liqligiga tayanuvchi dunyoqarash, umumlashtirilgan xususiyatga ega bo'lgan xulosalardan tashkil topishi lozim. O'quvchilar bunday xulosalarning obyektivligini faqat o'zaro yaqin fanlardan bilimlarni jalb etish zarurligiga ishonch hosil qilgandagina anglashlari mumkin.

5. O'quv fanlariaro aloqadorlikni qo'llash asosida o'tilgan dars o'quvchilarda ijobiy taassurotlar uyg'otishi, ularda turli fanlardan olgan bilimlari o'rtasidagi tafovutlar, bog'liqliklarni bilib olishga qiziqish hosil qilishi lozim.

Hozirgi kunda bir qator o'quv predmetlari uchun umumiy bo'lgan tushunchalar orasidagi aloqalarni o'rnatish psixologik va metodik asosga ega bo'lgan integratsiyalangan darslar tizimini ishlab chiqish va sinovdan

oʻtkazishni taqozo qiladi. Shu bilan birga predmetlararo aloqalar dars tarkibi darajasida oʻrgatilishi va zarur oʻqitish vositalari bilan taʼminlanishi kerak.

Didaktik tizimda predmetlararo asosda integratsiyalash oʻqituvchi (taʼlim berish) va oʻquvchi (taʼlim olish) harakatlarning mos kelishini koʻzda tutadi. Ikkala faoliyat ham umumiy tuzilishga ega: maqsadlar, sabablar, mazmun, vositalar, natijalar, nazorat. Biroq oʻqituvchi va oʻquvchi faoliyatlarining mazmunida farq bor.

1. **Maqsadli bosqichda** oʻqituvchi umumiy maqsadni qoʻyadi. Oʻquvchilar oʻqituvchi boshchiligida predmetlararo bogʻliqliklarni tushunib yetishlari, turli predmetlardan kerakli bilimlarni tanlab olishlari kerak, bunda ular oʻz eʼtiborlarini faqat umumiy bilimlarni oʻzlashtirishga emas balki, koʻchirish tahlil qilish shaxsning belgilari qobiliyat va qiziqishlarini rivojlantirishga qaratishlari kerak.

2. **Isbotlash bosqichida** oʻqituvchi oʻquvchilar dunyoqarashini oʻstiruvchi bilimlarga, turli predmetlar tushunchalarini umumlashtirishga ragʻbarlantiradi. Oʻquvchilar oʻz irodalarini dunyoqarashni kengaytiruvchi bilimlarga qiziqishga yoʻnaltiradilar.

3. **Faoliyatning mazmun bosqichida** oʻqituvchi yangi oʻquv materialini kiritadi, shu bilan birga integratsion dalillar, tushunchalar, muammolar majmui darajasidagi boshqa predmetlardan olingan tayanch bilimlarni jalb qiladi. Oʻquvchilar umumpredmetli tushuncha, muammolarni umumiy bilimlar darajasida oʻzlashtiradilar.

4. **Vositalar tanlash bosqichida** oʻqituvchi turli predmetlar bilimlarini umumlashtirishga yordam beruvchi koʻrgazmali vositalarni-darsliklar, tablitsalar, sxemalar, savolnomalar, amaliy vazifalar. Oʻquvchilar koʻchirish, umumlashtirish, biriktirish xarakterlarini integratsion masalalarni hal qilishda koʻrgazmali vositalar yordamida bajaradilar.

5. **Keyingi bosqich - natija.** Oʻqituvchi taʼlim berish, rivojlantirish, tarbiyalash maqsadida integratsiyani amalga oshirish uchun pedagogik bilimlarni qoʻllaydi. Oʻquvchi bilimlar tizimida, umumlashtirishlarni amalda qoʻllaydi.

6. *Nazorat qilish bosqichida* o'qituvchi bir-biri bilan bog'langan predmetlarga o'quvchilarning tayyorligini baholaydi, nazorat qiladi, o'zlashtirish sifatida baholaydi. O'quvchilar o'z bilimlarini baholashni, turli predmetlar bo'yicha o'z-o'zini ham, ularni birlashtirish ko'nikmalarini nazorat qiladilar.

Tekshiruvlar ko'rsatishicha integral yondoshuvni amalga oshirishga yordam beruvchi usul va vositalarga:

1. Evritsik suhbatlar;
2. Umumiy suhbatlar;
3. Ekskursiyalar;
4. Ona tili, tabiatshunoslik darslarida kuzatishlar, badiiy asarlar materiallari asosida nutq o'tsirish uchun yozilgan ijodiy ishlar;
5. Ta'limning ko'rgazmali, metodlari;
6. Mustaqil ishlar;
7. O'qish, matematika darslarida og'zaki rasm chizish;
8. Imo-ishorali ko'rinishlar (pantomimalar);
9. Tabiatshunoslik darslarida tabiat tasvirlarini ifodali o'qish;
10. Ona tili darslarida tabiatshunoslikka oid diktantlar, matnlar yozish (shu sinfga tegishli orfogrammalarini takrorlagan holda);
11. O'lkashunoslik asosida matematik masalalarni hal qilish, yechish va boshqalar kiradi.

Boshlang'ich sinflarda matematikani ona tili bilan bog'lab o'qitishda o'qituvchi o'quvchilarga mavzuga doir tushunchalarni berishda nutqiga alohida e'tibor qaratishi lozim. Masalan, tenglamalarni yechish jarayonida o'quvchilar diqqatini noma'lumni topish bilan birgalikda kelishik qo'shimchalaridan to'g'ri foydalanishga ham qaratish mumkin.

Namuna:

Matematika va ona tili tushunchalarining bog'lanish usullari				Misollar		
Noma'lum	Kelishik ko'shimchalari	Nima qilinsa	Yechish amali	Tenglama	Tenglamaning yechilishi	Yechim

X	ga;ni	+	-	$x+40=90$	$x=90-40$	$x=50$	50
X	ni;ga	*	:	$x * 30=270$	$x=270:30$	$x=9$	9
X	ni;ga	:	:	$240:x=8$	$x=240:8$	$x=30$	30
X	dan;ni	-	-	$100 - x =6$	$x=100-6$	$x=94$	94
X	ni;ga	:	*	$x : 123=3$	$x=123 * 3$	$x=369$	369
X	dan;ni	-	+	$x- 130=90$	$x=90+130$	$x=220$	220

2.3. Tajriba-sinov ishlari tahlili

Muammoga doir izlanishlar olib borishda, tajriba–sinov ishlarini tashkil etishda quyidagi vazifalarni amalga oshirishga harakat qildik:

- 1) Fanlararo integratsiya hodisasining mazmun-mohiyatini o'rganish.
- 2) Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining integratsiyalashgan darslarni tashkil etishga doir fikr-mulohazalarini o'rganish;
- 3) An'anaviy metodlar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan dastlabki iqtisodiy bilim va tushunchalarning o'zlashtirilganlik darajasini aniqlash va natijalarini tahlil qilish.
- 4) Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'qitiladigan fanlardan integratsiyalashgan darslarni tashkil etish metodikasini o'rganish.

Olimlarning mazkur yo'nalishdagi ilmiy-tadqiqot ishlari, falsafiy, psixologik, pedagogik muammolar yoritilgan ilmiy asarlar o'rganildi va tahlil etildi. Bitiruv malakaviy ishning 1.3-bandida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining integratsiyalashgan darslarni tashkil etishga doir fikr-mulohazalari tahlil qilindi. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarining fanlarni o'zlashtirish darajalari test sinovlari asosida aniqlandi.

Mazkur bosqichda amalga oshirilgan tadqiqot natijalarining chuqur tahlillari asosida quyidagi xulosalarga keldik:

birinchidan, ko'pgina o'qituvchilar o'quvchilarga o'quv materiali mazmunini tushuntirishda asosan ta'limning reproduktiv metodlaridan foydalanadilar. Dars jarayonida taqdim etilayotgan bilimlarning asosiy mazmuni o'quvchilarga tayyor tarzda taqdim etiladi;

ikkinchidan, barcha o‘quv fanlari uchun umumiy bo‘lgan dars jarayonida o‘quvchilarda iqtisodiy bilim va tushunchalarni shakllantirishda o‘quv fanlariaro aloqadorlikni ta’minlovchi imkoniyatlardan to‘la foydalanilmaydi.

Tajriba-sinov ishining keyingi bosqichida ilmiy farazimiz asosida 3-sinf matematika fanidan integrativ darslar orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida iqtisodiy bilimlarni shakllanganligini aniqlash bo‘yicha qator tadbirlar amalga oshirildi. Bunda iqtisodiy tarbiyani olib borish, uning mazmuni, iqtisodiy tarbiyaning tarixiy rivojlanish mohiyati va Sharq mutafakkir olimlarining iqtisodiy tarbiyaga oid qarashlari haqida ma’lumotlar berib o‘tildi.

Tajriba-sinov ishlari quyidagi sinflarda olib borildi.

2.3.1-jadval

T/r	Maktab	Tajriba guruhi		Nazorat guruhi		Jami o‘quvchilar soni
		Sinf	O‘quvchilar soni	Sinf	O‘quvchilar soni	
1.	15	3-A	31	3-B	30	61
	Jami	1 ta	31 nafar	1 ta	30 nafar	61 nafar

Tajriba-sinov ishlari davomida boshlang‘ich sinflarda o‘quv fanlarini integratsiyalash asosida darslar tashkil etish o‘quvchilarga katta qiziqish uyg‘otdi. Bunday dars loyihalari bir dars doirasida o‘quvchilarga bir qancha fanga doir tushunchalarni o‘zlashtirish imkoniyatlarini yaratishga qaratildi.

Olib borgan kuzatishlarimiz asosida boshlang‘ich sinflarda integratsiyalashgan mashg‘ulotlar tashkil etildi. Ushbu mashg‘ulotlar tizimi tajriba sinflarida amalda to‘liq qo‘llanilgach, o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish samaradorligini aniqlash maqsadida, tajriba va nazorat sinflarida test sinovlari o‘tkazildi, pedagogik tajriba-sinovni boshlash va yakunlash davrida o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish samaradorligidagi miqdor hamda sifat o‘zgarishlari aniqlandi.

2.3.2-jadval

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining iqtisodiy tushunchalarni bilishi va fanlararo aloqadorlikni anglash darajalari

№	Savollar	Yuqori daraja		O'rta daraja		Quyida daraja	
		Tajriba sinfi 3-A sinf	Nazorat sinfi 3-B sinf	Tajriba sinfi 3-A sinf	Nazorat sinfi 3-B sinf	Tajriba sinfi 3-A sinf	Nazorat sinfi 3-B sinf
1.	Matematika fani nimani o'rgatadi?	7/12	6/8	13/15	13/15	11/4	11/7
	% foiz hisobida	22.5/38.7	20.0/26.6	41.9/48.4	43.3/50.0	35.4/12.9	36.6/23.3
2.	Matematika darslarida yana qaysi fanlarni o'rganishimiz mumkin?	4/8	4/5	11/16	12/16	16/7	14/9
	% foiz hisobida	12.9/29.0	13.3/16.6	35.4/51.6	40.0/53.3	51.6/22.5	46.6/30.0
3.	Iqtisodiy bilimlar deganda nimani tushunasiz?	5/10	4/7	12/16	13/15	14/5	13/8
	% foiz hisobida	16.1/32.2	13.3/23.3	38.7/51.6	43.3/50.0	45.1/16.1	43.3/26.6
4.	Insonda qanday moddiy ehtiyojlar mavjud?	3/6	3/4	10/14	9/11	17/11	18/15
	% foiz hisobida	9.7/19.3	10.0/13.3	32.2/45.1	30.0/36.6	54.8/35.4	60.0/50.0

Izoh: 4/8 kasr ko'rinishidagi qiymatda suratdagi 4 – tajriba avvalidagi ko'rsatkich bo'lsa, kasrning maxrajidagi 8 – tajribadan keying ko'rsatkich.

Keyingi bosqichda ilgari surilgan farazning hayotiyliigi, yangiligi, ishlab chiqilgan tavsiyalarning samaradorligini aniqlash maqsadida o'tkazilgan tajriba-sinov natijalari umumlashtirildi.

Tadqiqot natijasida aniqlangan nazariy yondashuvlar, qoidalar, qarashlar, g'oyalar ushbu bosqichda amaliy jihatdan o'z tasdig'ini oldi. O'quvchilarning bilim, tushuncha, ko'nikma, malakalarining sifati va samaradorligini nazorat qilish maqsadida tajriba-sinov jarayoniga o'qitishning muayyan shakllari joriy etildi. Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilayotgan bilimlarning puxtalik va mustahkamlik darajasi ularning boshlang'ich sinflardagi o'quv fanlari bo'yicha darslarda egallagan bilimlari va o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishlari asosida ko'nikma hamda malakalarini rivojlantirish, nafaqat bitta o'quv predmeti, balki turli o'quv fanlari bo'yicha o'zlashtirilayotgan bilimlarni mujassamlashtirish imkonini beradi. Mazkur bosqichda o'quv fanlariaro

aloqadorlikni ta'minlash va ta'lim jarayonida uni keng qo'llashning usul va vositalarini takomillashtirish yo'llarini ko'rsatishga erishildi. Qayta nazorat etishga qaratilgan tajriba-sinov ishlari ham keng ko'lamda tashkil etildi.

Tajriba guruhlarida ta'lim-tarbiya jarayonining yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilishi va bu jarayonning o'quvchilar bilimini rivojlantirishga ko'rsatadigan ta'sirini aniqlash maqsadida o'xshashlik metodidan foydalanildi. Mazkur metod o'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlash asosida bir necha guruhlarda tajriba-sinov ishlarini tashkil etishga imkon berdi. Nazorat guruhida ta'lim jarayoni amaldagi an'anaviy metodlar yordamida tashkil etildi. Demak, mukammal, barqaror tajribaga tayanib tashkil etilgan ta'lim jarayonida o'quvchilarning soni, dastlabki tajribalarda aniqlangan bilim darajasi, o'rganilayotgan mavzu uchun ajratilgan soatning umumiy miqdoriga e'tibor berildi. Ilmiy tushunchalarni shakllantirishda o'quv fanlariga nisbatan integral yondoshuv, ta'lim jarayonida maxsus tanlangan fanlararo aloqadorlikni ta'minlashga xizmat qiladigan metod va vositalardan foydalanilgan holda tashkil etildi.

Shunday qilib, o'quv fanlariaro aloqadorlik - bu ilmiy integratsiya zamonaviy sharoitlarida alohida ahamiyatga ega bo'lgan, o'quv fani mazmuni va tuzilishini shakllantiruvchi omildir

Tajriba-sinov davomida o'quvchilarning ko'rgazmali-obrazli idrok etish imkoniyatlarini rivojlantirish va abstrakt fikrlashlarini ta'minlash maqsadida foydalaniladigan turli o'quv vositalarining samaradorliligi tekshirildi: asboblari, turli o'quv fanlari bo'yicha ko'rgazmali qo'llanmalar, aralash o'quv fanlari darsliklaridan tanlab olingan maxsus matnlar, maketlar va modellar, o'quv fanlari to'g'risida ko'rsatma va eslatmalar, turli darsliklarda uchraydigan bir xil tushunchani ifodalovchi variantlardagi matnlar, biror belgisi bilan o'xshash bo'lgan tushunchalarni turlarga ajratish uchun zarur bo'lgan jadvallar, o'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlashga xizmat qiladigan ijodiy topshiriqlar.

Tajriba-sinov jarayonining dastlabki bosqichida o'quvchilar turli o'quv fanlari bo'yicha egallagan bilimlarini o'zaro bog'liq holda o'rganish

imkoniyatlarini o'zlashtirmagan, tushunchalarni o'zlashtirish bo'yicha mantiqiy operatsiyalarni bajarish umumiy qoidalari bilan hali tanish bo'lmagan, har xil o'quv darsliklari bilan ishlash ko'nikmasi tarkib topmagan davrda tajriba guruhlarida o'tiladigan darslarda fanlararo aloqadorlikka oid tushunchalarning tanlab olingan bir qismini taqdim etish lozimligi haqida ko'rsatmalar berildi.

Turli o'quv fanlari bo'yicha taqdim etilgan o'quv materiallari qo'shimcha topshiriq sifatida qabul qilindi. O'quvchilar birmuncha vaqt davomida o'ziga xos moslashish davridan o'tdilar. Darslarda o'quv fanlararo aloqadorlikni ta'minlashda turli xil usul va vositalardan foydalanish natijasida o'quvchilarning o'quv fanlari bo'yicha o'z bilim va ko'nikmalarini oshirib borganlari sari ilmiy bilish tajribalari qizg'in faoliyat tusini oldi.

II bob bo'yicha xulosa

Boshlang'ich sinflarda o'quv fanlariaro aloqadorlik asosida darslar tashkil etish borasidagi izlanishlarimiz hamda ta'limga integrativ yondoshuvning ijobiy va salbiy tomonlari to'g'risidagi o'qituvchilar fikrini umumlashtirib quyidagi ijobiy natijalarni aytish mumkin:

1. Integratsiyalashgan darslar hozirgi dunyo to'g'risidagi tasavvurlar darajasiga mos keladi.

2. Har bir o'qituvchiga o'z fanini o'qitishning kelajakdagi imkoniyatlarini ko'rish va faoliyatning yangi qirralarini ochish, «dunyoni yangidan» o'zi uchun kashf etish imkoniyatini beradi.

3. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'sir ko'rsatishning yangi metodik shakllarini, integrativ yondoshishning mos mezonlarini izlash ehtiyoji yuzaga keladi. Ushbu ehtiyoj esa har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisidan o'z utsida ishlash va tinimsiz izlanishni talab etadi.

4. Integratsiyalashgan darslar yosh avlodda tabiat va jamiyat haqidagi yaxlit tasavvurlarni shakllantirishga yordam beradi.

5. Umumiy o'rta ta'lim o'quv rejasidagi qator fanlarni umumlashtirish va shu asosda o'quv predmetlari sonini kamaytirish imkoniyati yuzaga keladi. Bu esa o'z navbatida ta'lim uchun sarflanadigan ortiqcha harakatlarni va mablag'larni tejash imkoniyatini tug'diradi.

Sifat jihatdan yangi pedagogik natijaga erishish – ya'ni alohida fanni rivojlantirish emas, balki ta'limda yangi falsafani joriy etish, dunyoning bir butunligi va o'zaro bog'liqligi pedagogik jarayon samarasini oshirishga yordam beradi.

Umumiy xulosa va tavsiyalar

O'quvchi shaxsini intellektual rivojlantirish, chuqurlashtirilgan, ixtisoslashtirilgan holda o'qitish, ularning ilmiy tafakkuri va aqliy salohiyatini oshirish bugungi kunning dolzarb muammosidir. O'quv fanlariaro aloqadorlikning o'rganilmagan qirralarini aniqlashga intilib, bir qator pedagog olimlarning ushbu muammo bo'yicha amalga oshirgan ilmiy-tadqiqot ishlari atroflicha o'rganildi. Maqsadimiz fanlararo aloqadorlikning nazariy jihatdan tan olingan qonuniyatlariga zid kelmaydigan yondashuvlar asosida o'rganilmagan jihatlarini tadqiq qilishdan iborat edi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'qitiladigan fanlarni o'zaro bog'lab o'rgatishda ta'limning amaldagi barcha qonuniyatlariga amal qilgan holda yondashildi. O'quv predmetlari, o'qitish va bilim olish hodisalari o'zaro aloqador va mazmunan uyg'un faoliyat ekanligi didaktik jihatdan asoslandi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil fikrlash ko'nikmasini rivojlantirishda o'quv fanlariaro aloqadorlik mexanizmidan foydalanish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Matematikani o'rganish jarayonida hosil qilingan tasavvur va bilimlarni umumlashtirgan holda o'quvchilarda ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o'quv fanlariaro aloqadorlik asosida muayyan ko'nikma va malakalar shakllantirildi va quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatdiki, o'quv fanlariaro aloqadorlik hodisasi murakkab va serqirra didaktik jarayondir. Fanlararo aloqadorlikning falsafiy asosi, fanlar va ilmiy tushunchalarning o'zaro bog'langan holda rivojlanishi taniqli olimlar tomonidan ochib berilgan. Ular o'quv fanlariaro aloqadorlik qonuniyatlari metodologik-didaktik tamoyillar ichida yetakchi didaktik hodisa ekanligini ta'kidlab o'tganlar.

2. Fanlararo aloqadorlik – ta'lim jarayoni va uning barcha o'qitilish shaklida didaktik shart-sharoitlarni takomillashtiruvchi didaktik hodisadir.

3. O'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlashda mazmunan bir-biriga yaqin o'quv predmetlarining materiallari nihoyatda talabchanlik bilan muvofiqlashtirildi; o'rganilayotgan materialning ilmiy va amaliy darajasini oshirishga harakat qilindi; o'zaro aloqador bilimlar didaktik birlik sifatida yaxlitlashtirildi; o'quvchilar ongida

barqaror va tizimlashtirilgan bilimlarni singdirish yo'llari ko'rsatildi; umumlashtirilgan bilimlarni o'zlashtirish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladigan vositalar belgilab berildi. O'quv fanlariaro aloqadorlik ta'lim jarayonining asosiy tarkibiy qismlariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi, ya'ni o'quv materialining mazmuni, o'qitish metodlari va texnik vositalar ushbu jarayonga muvofiq holda tanlandi.

Tajriba-sinov ishi davomida boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan darslar quyidagi talablarga javob berishi lozimligini aniqladik:

- ikki yoki undan ortiq fan elementlari bog'lanishi lozim;
- dars to'liq loyihalashtirilishi kerak;
- o'quvchilarda tabiat, jamiyat va hayotiy vaziyatlar haqidagi yaxlit tasavvurni hosil qilishga qaratilmog'i zarur;
- o'quvchilar fanlararo bog'liqlikni topishga va mustaqil hamda ijodiy mushohada yuritishga yo'llanishi kerak.

Mazkur vazifalarga hamohang tarzda o'quv fanlariaro aloqadorlikni ilmiy jihatdan asoslash maqsadida uning metodologik-didaktik infratuzilmasini vujudga keltirish, ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda o'quv fanlarining o'zaro aloqadorligini ta'minlash lozim.

4. O'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlash bo'yicha amalga oshiriladigan faoliyatning samaradorligi asosan o'quv predmetlari o'qituvchilarining ijodiy izlanishlari va faoliyatlarining mazmundorligiga ham bog'liqdir.

5. Boshlang'ich sinflarda o'quv fanlarini o'zaro aloqadorlikda o'qitish asosida quyidagi natijalarga erishish mumkin:

- Boshlang'ich ta'lim o'quv rejalari va o'quv dasturlari optimallashtiriladi;
- Boshlang'ich sinflarda bir qancha fanlar qisqarishi natijasida kichik maktab yoshidanoq chet tillarini o'rgatish yoki jismoniy rivojlantirish uchun imkoniyat tug'iladi;
- Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda mustaqil va mantiqiy fikrlash, abstrakt tafakkur yuritish ko'nikmalari shakllantiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" //Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: "Sharq" nashriyot matbaa-konserni. 1997-yil.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni // Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: "Sharq" nashriyot matbaa-konserni. 1997-yil.
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standartlari. O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim standartlarining davlat tizimi. Oliy ta'lim. 5141600 – Boshlang'ich ta'lim va sport–tarbiyaviy ish yunalishi. – Toshkent: 2006 – 24b.
4. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T.: O'zbekiston, 1998. - 684 b.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: 2008. 176 b.
6. Karimov I. "Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti". Xalqaro konferensiyada so'zlagan nutqi. – Toshkent, 2012 yil, 17 fevral.
7. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat va mafkura. 1-jild.-Toshkent: "O'zbekiston", 1996. -89 bet.
8. Abdullayeva B. Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari (ijtimoiy-gumanitar yo'nalishdagi akademik litseylarda matematika o'qitish misolida). Ped.f.dokt. ... diss. Toshkent. – 2006. 265 b.
9. Abdullayev Yu.N. Xorijda oliy ta'lim: tajriba va taraqqiyot yo'nalishlari.- Toshkent: "O'zbekiston", 1999.-200 bet.
10. Abdullayeva Q., Safarova R., Bikboyeva N. Boshlang'ich ta'lim kontsepsiyasi. // Boshlang'ich ta'lim, 6-son. 1998, 2-9 betlar.
11. Abduraxmonova N., O'rinboeva L. Matematika. 2-sinf uchun darslik. Toshkent: O'zbekiston. – 2012. 206 b.
12. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.-

Toshkent: TDPU, 2003.-175 bet.

13. Alixonov S. Matematika o'qitish metodikasi.—Toshkent: "O'qituvchi" 1992.-200 bet.

14. Аширова М.К. Развитие математических способностей учащихся на основе взаимосвязи естественно-математических дисциплин. //Автореф. дисс... канд. пед. наук. - Ташкент: 2000.-18 стр.

15. Ahlidinov R.Sh. O'zbekistonda umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun o'quv dasturlarini yaratishdagi izlanishlar. DTS asosidagi o'quv dasturlari: muammolar, izlanishlar, yechimlar. //Seminar materiallari. XTV ning ilmiy maqolalar to'plami.-Toshkent, 2002. 17-24 betlar.

16. Ahmedov M., Abduraxmonova N., Jumayev M. Matematika. 1-sinf uchun darslik. Toshkent: Turon-iqbol. – 2012. 160 b.

17. Bikbayeva N., Yangibayeva E., Girfanova K. Matematika. 4-sinf uchun darslik. Toshkent: O'qituvchi. – 2011. 208 b.

18. Burxonov S., Xudoyorov O'., Norqulova Q. Matematika. 3-sinf uchun darslik. Toshkent: Sharq. – 2012. 206 b.

19. Musayev U. Integratsiya - ta'lim jarayonini optimallashtirishning muhim prinsipi. //Xalq ta'limi jurn. 2002, № 6. 4-7-b.

20. Musayev U. Q. Umumiy o'rta ta'lim jarayonini liberallashtirishning tashkiliy pedagogik shart-sharoitlari. //Ped. fan. nomz. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. Toshkent, 2004.- 130 bet.

21. Musayev P. O'quv fanlarining funksional vazifasi va ularni integratsiyalash masalalari. DTS asosidagi o'quv dasturlari: muammolar, izlanishlar, yechimlar. // Seminar materiallari. XTVning ilmiy maqolalar to'plami. Toshkent: 2002. 34-

22. Мусурмонов А. Дидактические основы межпредметных связей математики и трудового обучения в общеобразовательной школе. //Дисс... канд. пед. наук. Ташкент: 1988,-149 стр.

Internet saytlari

www.ziyonet.uz

www.lex.uz

www.pedagog.uz